Boshlang'ich ta'lim jarayoni davlatimizning ta'lim - tarbiya tizimida umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichidir. Uning asosiy maqsadi bolalarda elementar taszdagi o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishdan, obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish hamda boshlang'ich talim jarayonining samaradorligini oshirish uchun uni takomillashtirish va yangi yondashuvlar bilan boyitishdan iborat. Har qanday ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi tegishli fanlardan o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni xotirada yaxshi eslab qolishini ta'minlash va o'quvchilarni ulardan hayotda to'g'ri foydalana olishga o'rgatishdan iborat. Shu nuqtai nazardan didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ko'rgazmalilik tamoyildan unumli foydalanishdir.

Dars jarayonini ko'rgazmalili tashkil etish ham eshitish, ham ko'rish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarning turmushdagi zaruriyatini anglab etishga asos soladi. "Sinfga surat olib kirishing bilan soqov ham tilga kiradi" degan edi chex pedagogi Yan Amos Komenskiy. Mavzuga oid bilimni og'zaki tushuntirishda bir necha o'quvchiga yetib borishi mumkin. Yangi pedtexnologiya asoslari orqali esa yanada samaraliroq natijaga erishish ko'zda tutiladi. Masalan: turli ko'rgazmaliliklar yoki mavzuga oid turli multfilm, hujjatli filmlardan foydalanib, o'quvchida aqliy hujum tashkil etish bilan o'z uztida ishlashga undaydi. O'qituvchi dars davomida mavzuni mustahkamlash bilan o'quvchida yangi olgan bilimni oshiradi. Aqliy hujum orqali nafaqat o'quvchining bilimining oshishiga balki o'qituvchi ham o'quvchining fikri orqali ruhiyatiga moslab darslarga har-xil pedtexnologiya usullaridan qo'llashi mumkin.

Darsda muallimning og'irini yengil qiluvchi narsa bu shubhasiz ko'rgazmali qurollardir. O'quvchining intellektual salohiyatini oshirish, mavzuni fanlararo bog'lagan holda yangi bilimlarni shakllantirish interaktiv jarayonda o'quvchilarning tabiatga nisbatan mas'ulligini oshirish deb o'ylayman. Mavzuga oid rang – barang ko'rgazmali qurollar o'qituvchiga yengillik yaratib qolmay, o'quvchilarning murakkab fan olamiga osonlik bilan kirib borishida ham asqotadi. Qisqa ailib aytganda ko'rgazmali qurol va darslik pedagog uchun juda zarur.

Ko'rgazmali qurollardan foydalanish metodi qadim zamonardan beri ishlatilibkelinayotgan eng qulay, samarali va tushunarli metod hisoblanadi. Zero, ko'rish orqali eshitishga nisbatan 5 marta ko'proq va 13 marta ko'proq taktik organlarga nisbatan ko'proq ma'lumotni miyaga yetkazadi. Bu ma'lumotlar tez, oson va mustakam o'rhashib qoladi.

Ko'rgazmalilik metodi o'ziga xos tamoyillarga asoslanadi. Ko'rgazmali qurollardan foydalanish qoidalari juda ko'p bo'lib, ayrimlarini ko'rsatib o'tamiz:

1. So'z bilan emas, namoyish bilan ko'proq, tez va oson tushunib olish mumkin.
2. Shuni unutmangki bola rang, shakl, tovush(ohang) orqali tezroq tushunadi.
3. Ko'rgazmalilik maqsad emas, vosita ekanligi unutmang.
4. Tushuncha, bilim aniq dalil va ko'rgazma bilan samarali ekanligi unutmang.
5. Ko'rgazmalilik faqat tomosha emas, balki bilim olishning manbai, izlanuvchanlik, ijodkorlikka o'rgatuvchi omildir.
6. Ko'rgazmali qurollardan foydalaning, ammo juda ko'p emas, chunki bu o'quvchi diqqatini bo'lib, charchatib, asosiysidan chalg'itadi.
7. Ko'rgazmali qurollarni o'quvchilar bilan birga tayyorlash samarali natija beradi.
8. O'zingiz bilmagan ko'rgazmali qurolini ishlataman deb ovora bo'lmang, uyalib qolasiz. Oldin o'zingiz yaxshilapb o'rganing.



9. Axborot texnologiyalari va ta'limning texnik vositalaridan foydalanishni biling.

10. Ko'rgazmali qurol ishlata turib diqqat, kuzatuvchanlik, tafakkur madaniyati, loyihiyalash, ijodkorlik va o'qishga qiziqishga o'rgating.

11. Ko'rgazmalilikning yoshga, nafosatlilikka, ilmiylikka mosligiga e'tibor bering.

12. Ko'rgazmalilikning hayot bilan bog'liqligiga e'tiborni qarating.

13. Ularni kerak bo'lganda, navbat kelganda ishlating. Oldindan hammasini ochiq qo'yib diqqatni bo'lmang.

14. Ko'rgazmalilik harakatli, animatsion bo'lishiga e'tibor bering.

Ko'rgazma qurol tayyorlash uchun o'qituvchiga yangicha g'oya, tashabbus, xom ashyo, vaqt va energiya bo'lsa kifoya AKT savodxonligi va kompyuterda ishlash salohiyati yuqori Microsoft Power Point singari kompyuter dasturlari yosdamida samarali va yo'rqin ko'rgazmalar tayyorlab, tanlovlarda qatnashish orqali uni hamkasblari orasida ommashtirishi ham mumkin.

Ta'lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Buning uchun muntazam tarzda boshlang'ich ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, o'quvchilarning kompensiyalarini egallash jarayonlarini jadallashtirish hamda ularni rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish taqazo etiladi. Shu ma'noda o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutqini rivojlantirishda interfaol usullar, didaktik oyinlar, metodlardan dars mobaynida unumli foydalanish samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Bolalar o'yinlarida o'zaro munosabatlar “Boshlang'ich ta'lim” jurnali, 2019, №3.

2. Abdurahmonova A.E. O'yin vositasida o'quvchilar bilimini mustahkamlash. T.: “O'qituvchi”, 1995, №5.



BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA REBUSLARINING O`RNI

Uralova Umida

Sirdaryo viloyati Xovos tumani

22- umumta`lim maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Telefon: +998993450831

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang`ich sinf darslar va darsdan tashqari jarayonlarda rebuslar yechish orqali o`quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari namunalar asosida ko`rsatib o`tilgan.

Kalit so`zlar: rebus, mantiqiy fikrlash, ijodiy ish, rasmlı, shaklli va rasmlı rebuslar.

O`quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish jarayoni - ma`naviy manbaalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda tutilgan holda, o`qituvchilarning o`quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o`zaro amaliy va nazariy muloqatidir.

Bugungi kunda milliy ta`lim tarbiya tizimini har tomonlama rivojlantirishga mustaqil O`zbekiston taraqqiyotining asosiy, hal qiluvchi sohalaridan biri sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta`lim tizimini tubdan isloh qilish va ma`naviy yetuk avlodni tarbiyalash to`g`risidagi g`oyalari kadrlar tayyorlash milliy modeli asosini tashkil etadi. Bu model yuksak darajada ongli, barkamol shaxslar tarbiyasini ko`zlaydi.

Davlat ta`lim standartlarining yangi talablarini bajarish uchun kurashni faqatgina ilm-fanda emas, balki maktablarda o`quvchilarni bilimlarini kengaytirishda fanlararo bog`liklikni ta`minlash, darslarni qiziqarli qilib o`tish, ularda o`yin faoliyatini kengaytirish, darslarda fanlarga bog`liq krossvorlar, rebuslar va boshqotirmalardan foydalanish yanada samara beradi. Buni biz ona tili va o`qish savodxonligi va tabiiy fanlar darslari va darsdan tashqari jarayonlarda, ya`ni sinfdan tashqari tadbirlar, to`garak, intellektual o`yinlar kabilarga qo`shimcha sifatida bolani fanga qiziqishini ortirish maqsadida foydalansak maqsadga muvofiq bo`ladi. Boshlang`ich sinflarda o`quvchilarni fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda rebuslar yechish muhim o`rin belgilaydi. Bunda o`quvchining fikrlash qobilyati ortadi, tafakkur tushunchasi kengayadi, keng mulohazali bo`ladi, diqqat- e`tibori oshadi.

O`quvchilarni mantiqiy fikrlash doirasini kengaytiruvchi yo`naltirilgan rebuslar bolalarni yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tuzilishi ham talablardan biridir. Shunga ko`ra so`zlar hosil qiluvchi, so`ngra gaplar hosil qiluvchi rebuslardan foydalanish orqali o`quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib boramiz. Rebuslar asosan harflar va sonlar qo`shilmasi asosida so`zlar hosil qilish, keyin murakkabroq harf o`rniga boshqa harflar qo`yish, rasmlar bilan mujassamlashtirish orqali gaplar hosil qilish, alifbodagi harflarni sonlar ketma-ketligida, turli shakllar va rasmlar asosida belgilagan holda turli rebuslar hosil qilish asosida ham tuzilishi mumkin. Quyida rebuslardan namunalar keltiramiz.

So`z hosil qiluvchi rebus namunalari:

T 10

- to`n,

K 3

- kuch ,


6 n

- oltin,

5 K


- beshik.

Maqollar va hikmatli so`zlarga oid rebuslar:






Otalar so`zi- aqlning ko`zi
Multimediadan rebuslar yechish:



She`r va matnlarga oid rebuslar:
Rasmlardan foydalanib “Qor” so`zi qatnashadigan so`zlar tuzing.



Laylakqor, Qorbobo, qorparcha, Qorqiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, rebuslar yechish orqali o`quvchilarda mantiqan fikrlash qobiliyatlarini shakllantirar ekanmiz, ubilan bir qatorda fanlar integratsiyasi, ijodiy yondashuv jarayonlari ham mujassam holatda amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymurodova G. va b.q. O`qish “1-sinf o`qituvchilari uchun ilg`or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo`yicha metodik qo`llanma T-2014.
2. multimedia.uz



ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ

Давлатова Зебо Исмаиловна

Учитель русского языка в школе

№ 283 Учтепинского района города Ташкента

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы эффективного использования технологий проблемного обучения.

Ключевые слова: проблемная обучения, решение, занятия.

Сегодня под проблемным обучением понимаются проблемные ситуации, создаваемые педагогом на занятиях, и активная самостоятельная деятельность слушателей, направленная на их решение. В результате студенты приобретут профессиональные знания, навыки и умения, разовьют свои мыслительные способности.

Проблемное обучение относится к личностно-ориентированным технологиям обучения, поскольку здесь в качестве субъекта рассматривается человек, цель проблемных ситуаций - вызвать определенный интерес к педагогическому процессу. Проблемное обучение является наиболее естественным и эффективным методом обучения, поскольку логика научного познания демонстрирует логику проблемных ситуаций.

Проблемные ситуации включены, традиционны, повествование является наиболее оптимальным содержанием учебного материала. Преподаватель создает проблемную ситуацию, направляет слушателя на ее решение, организует поиск решения. Управление проблемным обучением требует педагогического мастерства, поскольку возникновение проблемной ситуации является индивидуальной ситуацией и требует дифференцированного и индивидуализированного подхода.

Проблемное обучение требует творческого подхода к решению нестандартных научно-учебных задач нестандартными методами. Задачи, выдаваемые учащимся для практики, служат для закрепления полученных знаний и формирования навыков, а проблемные задачи ориентированы только на поиск новых решений. Суть проблемного изложения учебного материала заключается в том, что оратор, не предъявляя готовых знаний, ставит перед слушателями проблемные вопросы и побуждает их к поиску путей и средств их решения. Проблема, к новым знаниям и методам действия, начинается сама собой.

Следует подчеркнуть, что здесь новые знания даются не для информации, а для решения задач или задач. При традиционном педагогическом методе - от знания к проблеме - у учащихся не могут формироваться навыки и компетенции самостоятельного научного исследования, поскольку им предъявляются готовые результаты для освоения. Решение задачи требует творческого мышления, полученные знания не действуют в проблемных ситуациях, репродуктивных и психических процессах, связанных с повторением шаблонов.

Если человека регулярно учить приобретать готовые знания и умения, можно погасить его природную творческую способность; он независимое мышление

Процесс «забывания» мышления прекрасно проявляется и развивается при решении проблемных вопросов.

Проблемное обучение помогает достичь сразу нескольких целей:

- Формирование у учеников необходимого объема ЗУН.
- Развитие творческого мышления.
- Развитие навыков самостоятельной работы.
- Развитие способности к самообучению.
- Формирование исследовательской активности.

Из недостатков методики можно выделить следующие:

• стратегию проблемного изучения сложно использовать для формирования практических навыков;

требуется больше времени для усвоения нового материала (по сравнению с другими методами обучения);

уроки по методике проблемного изучения возможны только на основе материала, который допускает неоднозначные решения, мнения, суждения;



метод проблемного обучения действует только тогда, когда у детей уже есть база знаний. Несмотря на перечисленные недостатки, технология проблемного метода обучения прочно обосновалась в современной педагогике как одна из самых оптимальных и отвечающих требованиям.

Когда возможно использование метода проблемного обучения?

Итак, суть метода проблемного обучения заключается в искусстве создавать проблемные ситуации и находить способы их решения.

Самое сложное в этом методе — создать правильную проблемную ситуацию.

- Во-первых, проблема, предлагаемая учащимся, должна быть доступной для детей этого возраста.
- Во-вторых, проблема не должна разрешаться с помощью уже имеющихся знаний и навыков, то есть должна побуждать к выдвижению новых идей и поиску новых знаний.
- В-третьих, ситуация должна содержать в себе противоречие.
- В-четвертых, ситуация должна вызывать интерес своей необычностью, нестандартностью.

В зависимости от чувства, которые испытывают ученики при знакомстве с проблемной ситуацией, в методике принято выделять два способа создания проблемной ситуации: с удивлением и с затруднением.

Литературы:

1. Кудрявцев Т. В. Проблемное обучение: истоки, сущность, перспективы. – М.: Знание, 1991. – 80 с.

2. Матюшкин А. М. Психология мышления. Мышление как разрешение проблемных ситуаций: учебное пособие / под ред. канд. психол. наук А. А. Матюшкиной. – М.: КДУ, 2009. – 190 с.



ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ОБУЧАЮЩИХСЯ

Махкамова Наима Юлдашевна

Учитель русского языка в школе

№ 283 Учтепинского района города Ташкента

Аннотация: в данной статье описаны основы организации самостоятельного обучения обучающихся. Автор описал мнения ученых по этим вопросам.

Ключевые слова: образования, самообразования, самостоятельного обучения обучающихся, саморазвития.

Основная задача образования заключается в формировании творческой личности специалиста, способного к саморазвитию, самообразованию, инновационной деятельности. Решение этой задачи вряд ли возможно только путем передачи знаний в готовом виде от преподавателя к студенту. Необходимо перевести студента из пассивного потребителя знаний в активного их творца, умеющего сформулировать проблему, проанализировать пути ее решения, найти оптимальный результат и доказать его правильность. Происходящая в настоящее время реформа образования связана по своей сути с переходом от парадигмы обучения к парадигме образования.

Это предполагает ориентацию на активные методы овладения знаниями, развитие творческих способностей обучающихся, переход от поточного к индивидуализированному обучению с учетом потребностей и возможностей личности. Речь идет не просто об увеличении числа часов на самостоятельную работу. Усиление роли самостоятельной работы обучающихся означает принципиальный пересмотр организации учебно-воспитательного процесса в школе, который должен строиться так, чтобы развивать умение учиться, формировать у студента способности к саморазвитию, творческому применению полученных знаний, способам адаптации к профессиональной деятельности в современном мире.

В то же время самостоятельная работа, ее планирование, организационные формы и методы, система отслеживания результатов являются одним из наиболее слабых мест в практике образования и одной из наименее исследованных проблем педагогической теории, особенно применительно к современной образовательной ситуации (диверсификация образования, введение образовательных стандартов, внедрение системы педагогического мониторинга и т.д.).

В исследованиях, посвященных планированию и организации самостоятельной работы обучающихся, рассматриваются общедидактические, психологические, организационно-деятельностные, методические, логические и другие аспекты этой деятельности, раскрыты многие стороны исследуемой проблемы, особенно в традиционном дидактическом плане. Однако особого внимания требуют вопросы мотивационного, процессуального, технологического обеспечения самостоятельной аудиторной и внеаудиторной познавательной деятельности обучающихся – целостная педагогическая система, учитывающая индивидуальные интересы, способности и склонности обучающихся.

Практическую реализацию организации самостоятельной работы мы предлагаем осуществлять при помощи информационно-коммуникативных технологий. Теоретический анализ специализированной литературы показывает, что дидактические возможности средств информационно-коммуникативных технологий создают предпосылки интенсификации образовательного процесса. Экспоненциальный характер роста возможностей средств информационно-коммуникативных технологий, развитие дистанционного образования привели к формированию точки зрения, что для совершенствования системы самостоятельной работы в условиях информатизации образования необходимо использовать дистанционные образовательные технологии обучения – новый способ реализации процесса обучения, основанный на использовании современных информационно-коммуникативных технологий, позволяющих осуществлять обучение на расстоянии личного контакта между преподавателем и обучающимися.

Таким образом, приведенная совокупность педагогических подходов и уточненные



принципы обеспечивают целостность и всесторонность, гармоничность и органичность педагогических процессов, касающихся организации самостоятельной работы, целью и результатом которой выступает становление человека, умеющего самостоятельно думать, решать, сотрудничать, отбирать и использовать информацию в своей профессиональной деятельности.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Коджаспирова, Г.М. Педагогический словарь: для студ. высш. и сред. пед. учеб. заведений / Г.М. Коджаспирова, А.Ю. Коджаспиров. - М.: Издательский центр «Академия», 2003. - 146 с.
2. Быстрова Н.В., Хижная А.В., Емелина А.В., Сундеева М.О. Основные принципы функционирования и развития воспитательной системы общеобразовательной организации // Карельский научный журнал. 2017. Т. 6. № 4 (21). С. 25-28.



ДАРС ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРНИ ИШЛАТИЛИШИ

Нуриддинова Назокат Абдуллаевна

Хоразм вилояти Кўшкўпир тумани 35-сон
мактаби жисмоний тарбия фани ўқитувчиси
Тел + 99-899-419-36-31
nazokatnuriddinova@gmail.com

Аннотация: Таълим олувчиларни фаоллаштирувчи ва мустақил фикрлашга ундовчи, таълим жараёнининг марказида таълим олувчи бўлган ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: Ролли ўйин, ишбоп ўйин, муаммони ечиш, ҳар хил шарт-шароитлар.


Дарс жараёни оқилона ташкил қилиниши, таълим берувчи томонидан таълим олувчиларнинг қизиқишини орттириб, уларнинг таълим жараёнида фаоллиги муттасил рағбатлантирилиб турилиши, ўқув материални кичик-кичик бўлақларга бўлиб, уларнинг мазмунини очишда ақлий ҳужум, кичик гуруҳларда ишлаш, баҳс-мунозара, муаммоли вазият, йўналтирувчи матн, лойиҳа, ролли ўйинлар каби методларни қўллаш ва таълим олувчиларни амалий машқларни мустақил бажаришга ундаш талаб этилади.

“Ролли ўйин” методи - таълим олувчилар томонидан ҳаётий вазиятнинг ҳар хил шарт-шароитларини саҳналаштириш орқали кўрсатиб берувчи методдир.

Ролли ўйинларнинг ишбоп ўйинлардан фарқли томони баҳолашнинг олиб борилмаслигидадир. Шу билан бирга “Ролли ўйин” методида таълим олувчилар таълим берувчи томонидан ишлаб чиқилган сценарийдаги ролларни ижро этиш билан кифояланишса, “Ишбоп ўйин” методида роль ижро этувчилар маълум вазиятда қандай вазифаларни бажариш лозимлигини мустақил равишда ўзлари ҳал этадилар.

Ролли ўйинда ҳам ишбоп ўйин каби муаммони ечиш бўйича иштирокчиларнинг биргаликда фаол иш олиб боришлари йўлга қўйилган. Ролли ўйинлар таълим олувчиларда шахсларо муомала малакасини шакллантиради.

“Ролли ўйин” методида таълим берувчи таълим олувчилар ҳақида олдиндан маълумотга эга бўлиши лозим. Чунки ролларни ўйнашда ҳар бир таълим олувчининг индивидуал характери, хулқ-атвори муҳим аҳамият касб этади. Танланган мавзулар таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражасига мос келиши керак. Ролли ўйинлар ўқув жараёнида таълим олувчиларда мотивацияни шакллантиришга ёрдам беради. Қуйида “Ролли ўйин” методининг тузилмаси келтирилган.



“Ролли ўйин” методининг тузилмаси

“Ролли ўйин” методининг босқичлари қуйидагилардан иборат:

1. Таълим берувчи мавзу бўйича ўйиннинг мақсад ва натижаларини белгилайди ҳамда ролли ўйин сценарийсини ишлаб чиқади.
2. Ўйиннинг мақсад ва вазифалари тушунтирилади.
3. Ўйиннинг мақсадидан келиб чиқиб, ролларни тақсимлайди.
4. Таълим олувчилар ўз ролларини ижро этадилар. Бошқа таълим олувчилар уларни кузатиб турадилар.



5. Ўйин якунида таълим олувчилардан улар ижро этган ролни яна қандай ижро этиш мумкинлигини изоҳлашга имконият берилади. Кузатувчи бўлган таълим олувчилар ўз якуний мулоҳазаларини билдирадилар ва ўйинга хулоса қилинади.

Ушбу методни қўллаш учун сценарий таълим берувчи томонидан ишлаб чиқилади. Баъзи ҳолларда таълим олувчиларни ҳам сценарий ишлаб чиқишга жалб этиш мумкин. Бу таълим олувчиларнинг мотивациясини ва ижодий изланувчанлигини оширишга ёрдам беради. Сценарий махсус фан бўйича ўтилаётган мавзуга мос равишда, ҳаётда юз берадиган баъзи бир ҳолатларни ёритиши керак. Таълим олувчилар ушбу ролли ўйин кўринишидан сўнг ўз фикр-мулоҳазаларини билдириб, керакли хулоса чиқаришлари лозим.

“Ролли ўйин” методининг афзаллик томонлари:

- ўқув жараёнида таълим олувчиларда мотивация (қизиқиш)ни шакллантиришга ёрдам беради;

- таълим олувчиларда шахслараро муомала малакасини шакллантиради;
- назарий билимларни амалиётда қўллай олишни ўргатади;
- таълим олувчиларда берилган вазиятни таҳлил қилиш малакаси шаклланади.

“Ролли ўйин” методининг камчилик томонлари:

- кўп вақт талаб этилади;
- таълим берувчидан катта тайёргарликни талаб этади;
- таълим олувчиларнинг ўйинга тайёргарлиги турлича бўлиши мумкин;
- барча таълим олувчиларга роллар тақсимланмай қолиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азизхўжаев. Н.Н Ўқитувчи тайёрлашнинг янги педагогик технологияси. Т.2000
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 1997.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abdunazarova Nigora Xolboyevna

Xovos tumani 9-IDUMning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Xov9maktab@umail.uz

Abduraxmanova Ra'no Abduazim qizi

Xovos tumani 9-IDUMning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnologiyaning aslida nima ekanligi va uning boshlang'ich sinf o'quv jarayonlarida qo'llanishi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarning amaliy ahamiyati ham batafsil ochib berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, pedagogik texnologiya, konseptuallik, tizimlilik, samaradorlik, qo'llanuvchanlik, tarbiya, ta'lim.

O'zbekistonimizda mustaqillik sharofati bilan barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirildi, iqtisodiy rivojlantirishning o'zbek modeli, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, kelajak avlodni tarbiyalash borasida zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olishi salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarshi, kommunikativ savodxonligi va o'z- o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga jismonan soglom bo'lishga moddiy borliq go'zalliklarni xis eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi. Bu aqliy salohiyatni yaxshilash va jismoniy barkamollikni yuksaltirishda harakatli va xalq milliy o'yinlarining xususiyatlari, fazilatlarini va tarbiyaviy mohiyati muhim ahamiyatga ega.

Shu bois pedagogik ta'limning muhim bosqichlaridan biri -jismoniy tarbiya hisoblansa, uning zamirida xilma-xil mashqlar sport turlari, sayohatlar, tabiatning sog' lomlashtiruvchi (quyosh, suv, havo, gigiyenik talablar) omillari qatorida harakatli o'yinlar mustahkam o'rin egallaydi.

Bugungi kunda dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalarda qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasno emas. Pedagoglar o'z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo'lga kiritishga urinmoqdalar.

Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi? «Pedagogik texnologiya» nimani anglatadi?

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mzmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'limtarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

“Texnologiya” tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan texnos- san'at, hunar va logos-fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani " ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchining o'quvchilarga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «o'qitish texnologiyasi», «ta'lim texnologiyasi» tushunchalari ham ishlatiladi.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.



Nufuzli YUNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif bo'yicha «Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir» Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini amalga oshirish va baholashni rejalashtirishda quyidagi mezonlarga tayaniladi:

1. Konseptuallik: har bir pedagogik texnologiya o'z tarkibida falsafiy, psixologik, didaktik, ijtimoiy pedagogik asosni qamrab olgan aniq ilmiy konsepsiyaga tayanishi lozim.

2. Tizimlilik: Pedagogik texnologiya hamma o'zaro bog'liq qismlardan iborat tizimning mantiqiy jarayoni belgilariga ega bo'lishi va yaxlit bo'lishi lozim Pedagogik texnologiya o'quvchilarning rivojlanishi, ijodiy shug'ullanishining metod, vositalarini, tafakkur rivojini o'rganadi, qiyinchiliklarni engishga o'rgatadi. O'quvchilarda o'quv materialini tushunishiga, muammoli izlanishning yangi shakllarini egallashlariga imkon beradi. Bilish izlanish jarayonini boshqarishni ta'minlaydi. Jarayonning mazmun-mohiyati uning qismlarining uzviy bog'liqligi, yaxlitligidan iborat.

3. Samaradorlik. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqobatli shartlar asosida mavjud bo'lib, natijalar bo'yicha samara berishi, optimal harakatli bo'lishi va ta'limning ma'lum bir standartlarini kafolatlashi shart.

4. Qo'llanuvchanlik. Pedagogik texnologiya bir xil ta'lim muassasalarida boshqa subyektlar tomonidan ham qo'llanilish imkoniyatini beradi.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma'naviy fazilatlarini o'zlashtirishga yunaltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qish darslari jarayonida erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali ular insoniy fazilatlarini anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2008.

2. Mallayev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T., 2000.

3. Internet ma'lumotlar.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Aliboyeva Sevara Nizomiddinovna
Sirdaryo viloyati Sirdaryo shahri
43-maktab boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi
+998997661909

Annotatsiya: Maqolada maktabdagi ta‘lim jarayonida elektron taqdimot-darsda slaydlardan ko‘rgazmali material sifatida foydalanish to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Boshlang‘ich ta‘lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalari yordamida bilim olishni rivojlantirishi haqida qisqacha yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: ta‘lim jarayoni, axborot kommunikasion texnologiyalari, multimedia, elektron darslik, elektron taqdimot.

*Ilm – narsalarning inson aqli yordami bilan o‘rganilishidir.
Abu Ali Ibn Sino*

Boshlang‘ich sinfda ta‘lim va tarbiya samaradorligiga erishishda, birinchi navbatda, o‘quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishiga tayyorgarligi va keyinchalik mustaqil ta‘lim olishlarida ular yordamida qo‘lga kiritgan axborotlardan foydalanishga qodirligi nazarda tutiladi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni bilim berish amaliyotida turli xil maqsadli chora - tadbirlarni ishlab chiqishi, birinchi navbatda o‘quv - tarbiyaviy jarayonda axborot - kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishi juda muhimdir.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida multimediadan foydalanish o‘qituvchiga:

- ✓ darsni zamonaviy tarzda modellashtirish;
- ✓ bilimlarini chuqurlashtirish uchun qo‘shimcha ma‘lumot va axborotlarga ega bo‘lish;
- ✓ nazariy va mustaqil ishlashni tayyorlash imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida multimediadan foydalanish o‘quvchilarga:

- fanga qiziqish uyg‘otish, o‘z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash;
- ensiklopedik ko‘rinishdagi axborotlarni tezkor olish;
- mavzuni o‘rganishda o‘zi uchun qulay bo‘lgan tezlik va o‘zlashtirish darajasini tanlash;
- zamonaviy axborot - kommunikasion texnologiyalarga jalb qilish, uni egallash va unga

doimiy ishlashga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish imkoniyatlarini beradi.

Ayniqsa, 1-4- sinf o‘quvchilari ko‘rgazmali - obrazli tasavvurga muhtoj bo‘ladi. Shuning uchun ta‘lim berishda imkon boricha ko‘proq sifatli illyustrativ materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ularga yangi bilim berish jarayonida nafaqat ko‘z orqali ko‘rish mumkin bo‘lgan, balki eshitish, hissiyot, tasavvur qilishga yordam beradigan vositalardan keng foydalanish lozim.

O‘quv ma‘lumotini qabul qilishda o‘quvchilarning qanchalik ko‘p his - tuyg‘ulari qatnasha, shunchalik o‘zlashtirishi tezlashadi. Bu imkoniyatni multimediali ko‘rgazmali ta‘lim amalga oshiradi.

Multimediali darslar quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yordam beradi:

- fan bo‘yicha asosiy bilimlarni o‘zlashtirish;
- o‘zlashtirilgan bilimlar izchilligini ta‘minlash;
- o‘z - o‘zini nazorat ko‘nikmasini shakllantirish;
- bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantirish;
- o‘quvchilarni o‘quv materiali ustida mustaqil ish olib borishlarida o‘quv - metodik yordam ko‘rsatish.

O‘quv topshiriqlarini multimediali vositalar yordamida o‘quvchilarga taqdim etish bir qadar qulayliklar tug‘diradi. Chunki multimediali vositalar o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishlarini ta‘minlashga xizmat qiladi. Har bir o‘quvchini o‘qituvchi hamda sinfdoshlari bilan muloqotga kirishish, hamkorlik qilishga undaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda shu narsa ta‘kidlanmoqdaki, axborot kommunikasiya texnologiyalari o‘quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiya tafakkuri rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. O‘quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli tarzda saqlanishi o‘quv materialini boyitib, uning o‘zlashtirilishiga yaqindan yordam beradi.



Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlari yangi turlarining paydo bo'lishidir.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, idrok va tasavvur qilish faolligini saqlab qolish va o'quvchini bilim olish maqsadida ta'lim jarayoniga kirib borishi uchun yetarli va kerakli sharoit yaratish, uning salomatligini va emosional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning barcha xususiyatlarini shakllantirishda axborot - kommunikatsion texnologiyalarining o'z o'rnini bor.

Axborot - kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish va ular yordamida o'quvchilarni har tomonlama bilimini oshirish, jamiyat uchun yetuk insonlar qilib tarbiyalash eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Buning uchun har bir sohani o'rganish, izlanish va tajriba orttirish, turli usul va yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerak bo'ladi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oily ta'lim tizimigacha yoshlarga bilim berish, tarbiyalash, ularning ijtimoiy, huquqiy savodxonligi va madaniyatini shakllantirishda yangi axborot - kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Multimedia - bu obyekt va jarayonlarni an'anaviy matn shaklida emas, balki fotorasm, video, chizma, animatsiya, ovoz yordamida namoyish qilishdir.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni multimedia texnologiyalari asosida o'qitish katta samara beradi. Buning uchun esa mashg'ulotlarning har bir mavzusi bo'yicha dars ishlanmalari yaratilishi lozim. Ana shu ishlanma asosida barcha mavzularga oid axborot texnologiyalari vositalari yordamida bayon etilishi lozim bo'lgan nazariy va amaliy materiallarning elektron taqdimoti shakli tayyorlanadi. Dars ishlanmalariga taqdimot slaydlar tayyorlanib, videoproektorlar orqali o'quvchilarga tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Multimediali taqdimot nafaqat matnli va ko'rgazmali balki ovoqli, animatsiyali bo'lishi o'quvchilar tomonidan mavzuni mukammal o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini yaratishdir.

Xulosa qilib shuni aytish joyizki, ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan isloh qilishdan ko'zlangan bosh maqsadimiz- barkamol insonni shakllantirish orqali o'z kelajagimizni ta'minlashdan iboratdir. Boshlang'ich sinflarni o'qitishda axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish va taqdimotlar tuzish yoki turli xildagi loyihalarni ishlab chiqish va bajarishda keying ishlarida foydalanishni bilib oladilar. Boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilar faqat daftardagina emas, balki bevosita kompyuterda ham topshiriqlarni bajara oladilar. O'quvchilar kompyuter bilan ishlashda birinchi ko'nikmalarni oladilar, o'zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirib boradilar.

Darhaqiqat, kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlodni tarbiyalash, biz o'qituvchilardan ma'suliyat talab qiladi. Ayniqsa, kelajak avlodda mustaqil fikrlash, mantiqiy fikr yuritish kabi ko'nikmalarni hosil qilish bugungi kun o'qituvchisining asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Azizho'jayev N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogic texnologiyasi. Toshkent. TDPU. 2000
2. M.Allamova. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining nazaryasi va o'qitish metodikasi bo'yicha ma'ruza matnlari va amaliy mashg'ulotlar majmuasi.
3. Internet ma'lumotlar. WWW. "Ziyonet".uz tarmog'idagi ma'lumotlar.



**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING
TIMSS XALQARO TADQIQOT DASTURI ASOSIDA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR
NAMUNALARINI ISHLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.**

Aliqulova Buvaysha Abdumanonovna
G'allaorol tumani 2-maktabning
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalarni maktab yoshidan fikrlashga, mulohaza yuritishga va kelajakda xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash uchun mashqlarni bajarish ko'nikmasini rivojlantirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: baho, maktab, o'quvchi, ichki va tashqi monitoring, TIMSS-2023, IEA tashkiloti

Maktabda olingan bilim insonning kelgusi hayot yo'lini belgilab beradi. Ko'pchilik bilimni 5 baho bilan o'ldiradi. Lekin baho bilimni belgilovchi aniq mezon hisoblanmaydi. O'quvchilarni faollikka undovchi, rag'batlantiruvchi vositagina, xolos. Har bir o'qituvchining o'z ish usuli, baholash metodi bor. Qaysidir o'qituvchi uchun baho bu — rag'bat yoki o'quvchini 45 daqiqa ushlab turish vositasi. Shundanmi, bir sinfdan ikkinchi sinfga o'tgan bolaning bahosida keskin o'zgarish yaqqol namoyon bo'ladi. Yana, pedagoglar orasida bahoni nisbatan yuqoriroq qo'yuvchi yoki o'quvchining bilim darajasi talabga javob bersa-da, 5 ni tejaydiganlari bor. Bu usullarning qaysi biri to'g'riligi esa doimiy bahslashishga mavzu deb aytiladi. O'quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'quv yili davomida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o'tkazib boriladi. Uning natijasiga ko'ra, eng namunalik maktablar ketma-ketligi, o'qituvchilar salohiyati va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi muntazam ravishda aniqlanib boriladi.

Bu jarayon ta'lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'lgani uchun Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari bilimni baholash bo'yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi va TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishildi. Bu borada IEA tashkilotining — Xalqaro matematik va ilmiy tadqiqotlar (TIMSS) 2023 tendensiyalarida qatnashish uchun rasmiy taklifiga muvofiq O'zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishi masalasida Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o'rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligiga erishildi.

Quyida 4-sinf o'quvchilari uchun TIMSS topshiriqlariga misollar keltirib o'tilgan.

1. Sonlar ketma-ketligini aniqlang va davom ettiring. 27, 36, 45, 54,.

Izoh: Mazkur topshiriqlar berilgan shakl va sonlarning ketma-ketligini aniqlash va uni davom ettirish uchun beriladi.

2. 5 tiyinlik tanga massasini qanday o'lchov birliklarida o'lchash mumkin?

1) Grammda 2) kilogrammda

3) Sentnerda 4) tonnada

3. Sonlarning tuzilish ketma-ketlik qoidasini aniqlang.

4, 8, 20, 44, 92.

1) 3 ga ko'paytirib, 4 ni ayiring.

2) 2 ga ko'paytirib, 4 ni qo'shing.

3) 2 ga bo'lib, 5 ga ko'paytiring.

4) 4 ga bo'lib, 10 ga ko'paytiring.

Izoh: Topshiriqning muvaffaqiyatli bajarilishi o'quvchining tahlil qila olish va berilgan tayyor javoblarni tekshirib to'g'risini aniqlay olish qobiliyati bilan belgilanadi.

4. Berilgan: 6868, 14, 1110, 522, 1902, 29, 43 sonlari ichidan ikki xonali juftsonlarni; to'rt xonali juft sonlarni aniqlang va yozing.

5. Berilgan sonlarni ikki guruhga ajrating va ularni nomlang. 120, 580, 301, 52, 17.

1-guruh ____, guruhning nomi ____, 2-guruh ____, guruhning nomi ____

Izoh: Topshiriqning muvaffaqiyatli bajarilishi o'quvchining sinflar klassifikatsiyasi haqidagi ma'lumoti borligi bilan belgilanadi.

6. Mashina 1 tonna yuk tashishga qodir. Omborda massasi 1200 kg bo'lgan yuk tayyorlandi. Bu mashina barcha yuklarni bitta reysda tashishi mumkinmi? Javobingizni tushuntiring.



Izoh: Ma'lum bir vaziyat orqali o'quvchining qiymatlarni solishtira olish va olingan javoblarni tekshira olish qobiliyati aniqlanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-538-son Farmoni. 2018-yil 5-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi tadqiqotlarni tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida” qaror. 2018-yil, 8-dekabr.
3. A.A. Ismailov va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash (metodik qo'llanma). Toshkent, 2019- yil.



ТА’ЛИМ ЖАРAYONI YAHLIT TIZIM SIFATIDA

Atajanova Muqaddas Yo’ldosh qizi

Xorazm viloyati Urganch shahar

7-sonli maktabning Geografiya fani o’qituvchisi

Allaberganova Shohista Rashid qizi

Xorazm viloyati Urganch shahar

7-sonli maktabning Fizika fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ta’lim jarayonining maqsadi, pedagogik tizim va uning vazifalari, tizimni takomillashtirishning asosiy yo’llari haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: tizim, ta’lim, faoliyat, pedagogik tizim, malaka, intensiv. ekstensiv.

Bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlaridan biri-ijtimoiy raqobatning paydo bo’lishidir. Ijtimoiy raqobat mavjud bolgan sharoitda mo’tadil faoliyat yuritish, raqobatga nisbatan ishchanlik immunitetini hosil qilish manfaatlar to’qnashuvida “omon” qolish, yuqori mavqe’ga ega bo’lish uchun imkoniyat yaratadi. Shu bois fuqarolarda ta’lim olish, nazariy va amaliy bilimlarni o’zlashtirishga nisbatan ongli yondashuv hissi qaror topmoqda. Bu esa ularda ta’lim olishga bo’lgan rag’batni hosil qilmoqda. Endilikda ta’lim olish, muayyan kasb-hunar yoki mutaxassislik ma’lumotlarini egallash, bu borada ma’lum ko’nikma va malakalarni shakllantirish hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Ta’lim olishga bo’lgan rag’bat va uning mazmuni ta’lim jarayoni muvaffaqiyatining garovi, kafolati bo’la oladi.

Ta’lim olishga bo’lgan rag’bat o’quvchi hamda o’qituvchi ishtirokidagi o’quv-bilish faoliyati asosining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yaqin o’tmishda o’quvchining ta’lim jarayonidagi ishtiroki nazariy bilimlarni qabul qilib oluvchi va o’zlashtirilgan nazariy bilimlar, amaliy ko’nikmalarni namoyish etuvchi sub’ekt sifatidagi roli bilan kifoyalangan bo’lsa, ta’lim texnologiyasi talablariga ko’ra o’quv ta’lim jarayonining yetakchi sub’ekti, asosiy ijrochisi sifatida ko’rinadi. Endilikda o’quvchi o’qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborot (bilim)larni qabul qilmaydi. Balki ta’lim beruvchining yo’llanmasi, ko’rsatmasiga muvofiq tavsiya etilgan o’quv manbalari bilan mustaqil ravishda tanishish orqali nazariy bilimlarni o’zlashtiradi, o’qituvchining nazorati ostida amaliy ko’nikma va malakalarni hosil qiladi. O’quvchi mustaqil faoliyat yuritish, nazariy bilimlarni o’zlashtirish asosida o’zida fikrni ilgari surish, dalillar keltirish, o’z fikrini himoya qilish layoqatini tarbiyalay olishi, o’z-o’zini tanqid qilish, o’z-o’zini baholash sifatlarini qaror toptira olishi talab etiladi. Davr talabi o’quvchini ta’lim jarayonining sust tinglovchisi bo’lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda.

O’quvchi faoliyati mazmunining to’laqonli yoritilishida ta’lim shakli, metod va vositalarininng ahamiyati katta. Zero, ular o’quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, bilim, ko’nikma va malakalarini aslidek, mavjud darajada yoritish uchun qulay shart-sharoit yaratib beradi.

Ta’lim jarayonining maqsadi DTS, o’quv rejasi dasturi, shuningdek, darslik, qo’llanmalarda belgilab berilgan muayyan mavzu hamda fan (yoki kurs)ning o’ziga xos jihatlari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, o’quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ularning hayotiy ehtiyoji va qiziqishlari, ta’lim beruvchining bilim va malaka darajasi, dunyoqarashi, ijodkorligi vaziyatni baholay hamda unga muvofiq tezkor harakat qila olish layoqati va hokazo omillarni inobatga olish asosida belgilanadi.

O’quv jarayonining maqsadi tashxisli ravishda aniq va ravshan belgilanmog’i lozim. Ta’lim maqsadining bunday belgilanishi ma’lum qilingan vaqtda didaktik jarayonni tashkil qilish va amalga oshirilish darajasi yuzasidan xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Ta’lim shakli o’qituvchi va o’quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma’lum rejimda tashkil etiladigan faoliyatlarning ma’lum ifodasidir.

Pedagogik jarayon bilamizki, pedagogik tizim asosida o’tib boradi. **Pedagogik tizim** - bu tashkil etuvchilarning birlashtirilgan majmui bo’lib, ular o’zgarishlarda ham barqarorligicha qolaveradi. Agarda o’zgarishlar (yangilik kiritish) qandaydir mumkin bo’lgan chegaradan oshib ketsa, tizim buziladi, uning o’rniga yangi boshqa xususiyatli tizim yuzaga keladi.

Bu tizimning tarkibiy qismlaridan har biri har qanday darajada elementlarga detallashtirib yoyib ko’rsatilishi mumkin.

Qurilgan tizimning tarkibiy tuzilishi emas deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko’rsatib



o'tilganlarga qo'shila olmaydigan pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismlari, shuningdek, «Natijalar», «O'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish», «Texnologiya»lardan iborat.

Pedagogik tizimning tashkil etuvchi tarkibiy qismi sifatida uni alohida omillar birligi ekanligini ta'kidlagan holda ko'pincha, o'quv tarbiya jarayonining texnologiyasini ko'rsatadilar. Bunday yondashish pedagogik tizim ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan mustahkam tashkiliy texnologik kompleks bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik tizim har doim ham texnologiyadir. Ana shu belgisi bo'yicha pedagogik tizimni tarkibiy qismlar ixtiyoriy «To'plamidan» ajratib olish osondir. Texnologik - bu qat'iy tashkiliy mantiqqa bo'ysunuvchi imkoniyatlarini belgilovchi tizimning ichki sifatidir.

Pedagogik tizimni takomillashtirishning asosiy yo'llari ikkita: intensiv va ekstensiv. Intensiv rivojlanish pedagogik sistemani ichki imkoniyatlar hisobiga, ekstensiv yo'l esa qo'shimcha kuchlar jalb etish - ya'ni, vositalar, asbob-uskunalar, texnologiyalar hisobiga takomillashtirishni ko'zda tutadi. Pedagogika texnologiyaning intensiv rivojlanish imkoniyatlari tugagan deb hisoblanadi: maktabning mavjudligi ming yilliklar davomida hamma yo'llarni sinab ko'rib bo'lgan, hozirgi pedagoglar nasibasi qaytarish, tarbiya mazmuni va vazifasini, mantiqiy chuqur esga olish, uning birlamchi asoslariga chuqur tushib borishdan iborat.

Pedagogik tizimning ochiqlik, dinamiklik, maqsadga yo'naltirilganlik kabi asosiy xususiyatlari uning shakllanib borayotganligini, mukammallikka intilayotganligini ko'rsatadi. Hayotning turli jabhalaridagi qayta o'zgartirishlar jarayonida u mukammallashadi, tarkibiy, funksional, tarixiy va boshqa yo'nalishlarda rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avliyoqulov N.H. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. B.: 2001
2. Azizxodjaev N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2003.
3. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004



TABIY FANLARNI O‘QITISHDA SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Atajanova Shahnoza Shavkatovna

Urganch shahar 1-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (93) 093 49 60

atajanova.shahnoza_1school@inbox.uz

Atayeva Malika Baxtiyorovna

Xiva shahar 12-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (97) 600 15 09

atayeva.malika_12@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlarni o‘qitilishining sifatga tasir etuvchi omillarni bartaraf etish hamda ta’lim sifat-samaradorligini oshiruvchi omillar haqida.

Kalit so‘zlar: Sifat samaradorlik, metodik adabiyotlar, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar.

O‘quvchilarni tabiiy fanlarga qiziqtirish, bu fanlarni o‘qitish sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy laboratoriya asbob-uskunalar va jihozlardan foydalanish qo‘l keladi. Ular yordamida tabiiy fanlardan o‘quv eksprementlari, namoyish tajribalar, laboratoriya ishlari, amaliy mashgulotlarni talab darajasida o‘tkazish mumkin. O‘quvchilarga faqat murakkab nazariy bilimlar berish emas, balki ularni yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, zarur o‘quv materiallari asosida o‘qitish, ularning mustaqil bilim olishini tashkil etish kerak.

Ma’lumki, ta’lim jarayoni sifati va samaradorligi o‘zaro bir qator omillarga bog‘liq:

1. Dars olib boruvchi o‘qituvchining kasb – mahoratiga.
2. Ta’lim jarayonini o‘quv – metodik adabiyotlar bilan ta’minlanganligiga.
3. Ta’lim jarayonini moddiy – texnik bazasiga, ya’ni o‘quv – laboratoriya asbob uskunalar, jixozlar bilan ta’minlanganligiga.
4. Barcha darslarni maxsus jixozlangan o‘quv – laboratoriya xonalarida olib borilishiga.
5. Laboratoriya ishlari, amaliy mashg‘ulotlar shuningdek tajriba va namoyishlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rishda va o‘tkazishda ishtirok etadigan laborantlarni kasb mahoratiga.
6. IM, IMI pedagoglari uchun alohida malaka oshirish kurslarini tashkil etilganligiga.
7. O‘qituvchining o‘z fanidan kasb mahoratini mustaqil oshirib borib, muntazam o‘z ustida ishlashiga.
8. Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish va boshqa omillarga.

Bugungi kunda kuzatuvlarimiz bo‘yicha tabiiy fanlardan dars olib borayotgan o‘qituvchilarining aksariyati o‘z fanining fidoyisi, tinmay izlanadigan, har bir darsni muqaddas bilib ijodiy muhit yaratib o‘tadigan o‘qituvchilar tashkil etadi. Boz ustiga ular turli sinf o‘quvchilarini “Bilimlar bellashuvi” ga, fan olimpiadalariga, akademik litseylarga, va oliy o‘quv yurtlariga kirishga tayyorlash bo‘yicha darsdan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlar olib borishadi. Binobarin umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedogoglari o‘z kasb mahoratlarini mustaqil oshirish bo‘yicha muntazam o‘z ustida ishlaydilar.

Ta’lim jarayonining moddiy texnik bazasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, deyarlik aksari ta’lim muassasalarida fan kabinetlari mavjud. Ammo, bitta umumiy kabinetda kimyo biologiya fanlaridan o‘quv – laboratoriya asbob uskunalar va jixozlarning joylashtirilganligi fikrimizcha laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazishga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Fikrimizcha imkoniyat doirasida har bir fan uchun alohida fan xonalarining ajratilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Sir emas tabiiy fanlar ta’limi sifat-samaradorligi dars jarayonida zamonaviy axborot va pedogogik texnologiyalardan samarali foydalanishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bu boradagi qiyinchilik shundan iboratki axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalarni turli tabiiy fanlar mazmuniga tadbiqu bo‘yicha maxsus qo‘llanmalar yaratilmagan.

Tabiiy fanlardan o‘tkaziladigan laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarning sifat-samaradorligi ta’lim jarayonida malakali laborantning ishtirokiga bog‘liq. Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan laborantlarning aksariyati o‘rta ma’lumotli, talab darajasida malakaga ega emaslar. Qolaversa, laborant lavozimida kim ishlashi kerakligi va tabiiy



fanlar uchun laborantlar malaka oshirish kurslarini tashkil etish masalasi muammoligicha qolib o‘z echimini kutmoqda.

Xulosa qilib aytganda sanab o‘tilgan omillardan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida to‘lalgicha foydalanishga to‘siq bo‘layotgan qiyinchiliklarni bizning takliflarimiz asosida bartaraf etilsa, binobarin ularda tabiiy fanlar ta’limi sifat-samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lib xizmat qilar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1.Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

2.Mustafoeva Sh.. “O‘smir psixologiyasi: yuz bilmagan jihatlar” Farg‘ona nashriyoti. T:2015.



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ERTAKLARNING O'RNI

Ataxonova Nasiba Radjapovna
Matkarimova Shirin Otayevna
Urganch tuman 19-son umumiy
o'rta ta'lim maktabi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilar nafaqat bilimlarni o'rganishga, balki ularning muloqotga bo'lgan, ehtiyojlarini ham qondirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy pedagogik texnologiya, o'quvchilarda samarali hamkorlik o'rnatish, pedagogik vazifalar

Bolaning qanday inson bo'lib yetishishi ota-ona tarbiyasi va atrof-muhit ta'siriga bog'liq. Bola yoshlikdan otaonasi, o'rtoqlari, atrofidagi kishilardan ma'naviy oziq oladi, ularga taqlid qiladi, ko'pgina urf-odatlarini, xulq-odobni o'zlashtiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratishi, ya'ni o'qishga, ta'lim olishga qiziqtirish va ishtiyoq uyg'otish bilan birga ularning idrok etish, fikrlash qobiliyatlarini, dunyoqarashlarini kengaytirish kabi sifatlarini o'stirishda o'z kasbiy faoliyatini to'liq safarbar etmog'i lozim. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili psixologik-pedagogik tadqiqotlarda boshlang'ich sinflarda o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy tahlili birinchidan, axborotlarni boyitib borish orqali ta'lim mazmunini o'zgartirish, didaktik elementlarni kattalashtirib o'zlashtirish, (B.P.Erdniev, P.M.Erdniev), har bir fanning asosiy g'oyasini ajratish (I.D.Zverev, V.N.Maksimova, R.A. Mavlonova, A.Abduqodirov, A.M.Markushevich) nazariy bilimlarning rolini oshirish (V.V.Davidov, A.K. Markova, J. Ikromov, A.M. Pishkalo, L.SH.Levenberg, N.U.Bikbaeva, E.Yangibaeva, M.Axmedov) yo'nalishlarida amalga oshirilgan.

Bunda ular o'quvchilarning ruhiy holati va imkoniyatlari, layoqati, yetukligi (yoshi nuqtai nazaridan), ma'naviy ehtiyoji, yashash muhiti (oiladagi turmush tarzi va ular yashaydigan mahalladagi muhit umumsog'ligi) kabi omillarni e'tiborga olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi va yoshlardagi burchga mas'uliyat javobgarlik) hissini tarbiyalash sir-asrorlarini mukammal egallagan bo'lmog'i lozimligi haqida so'z yuritganlar. Matematika o'qitish jarayonida ertaklardan foydalanishning asosini o'quv axborotini eslab qolishgina emas, balki uni chuqur tushunish, bilish va faol o'zlashtirish jarayoni sodir bo'ladi, o'quvchining o'zi sezmay holda qobiliyati rivojlanadi, yangi narsalarni o'rganadi. Har bir ertakning o'z g'oyasi bor. Masalan, «Sholg'om» o'yin ertagi bolalarni fikrlashga, voqealarni ketmaketlikda aytishga undaydi, «Kuch birlikda» degan g'oyani anglab yetishlarini ta'minlaydi. Ertaklardagi voqealar bir-biriga bog'liq ravishda sodir bo'lar ekan, bolalar ana shu aloqadorlikni, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni ham anglay boshlaydilar. O'qituvchi tomonidan mahorat bilan yetkazilgan ertaklar bolada ko'tarinki, quvnoq kayfiyatni yuzaga keltirishga, kichkintoy bilan xishayajonli, do'stonamuloqotni o'rnatishga, sezdirmay, osonlik bilan tarbiyaviy ta'sirni tashkil etishga, atrof-muhit haqidagi bilim va ma'lumot zahiralarni samarali to'ldirishga imkon yaratadi. Ertak qahramonlari bilan uchrashish bolani befarq qoldirmaydi. Ertak bolalarda xursandchilik, qiziqish uyg'otadi. Mashhur matematik N. I Markushevich ta'kidlaganidek, «ertakda tarbiyalanmagan bola ideal intilishlar dunyosini qiyin qabul qilishini, odam ertak orqali haqiqatni, o'ziga xoslikni ajratadi, ertak o'qimasdan nafaqat dunyoqarashni, tanqidiy fikrlashuvning 1-malakasini ham rivojlantirib bo'lmaydi. Matematika darsida ertaklardan foydalanishning 3 xil shakli bor:

- ertak dars;
- matematik ertak;
- ertak- masala.

Ertak darslar. Ertak darsda hamisha yaxshi kayfiyat hukmron bo'ladi. Bu esa darsda o'quvchi faolligini oshirishning omili bo'lib xizmat qiladi. Ertaklar darsga yumor, fontaziya, ijodiylik bag'ishlash bilan birga o'quvchini mehribonlik va halollikka o'rgatadi. Ertak darsda ertak qahramonlari qiyinchiliklarni boshlaridan kechiradilar, kutilmaganda muammolarga duch keladilar. Ularni yengish, ertak qahramonlariga yordam berish uchun matematik masalalarni bajaradilar, topishmoqlarning javoblarini topadilar, matematikaga doir maqollar aytadilar. Buning natijasida dars ona tili, o'qish, tabiatshunoslik va boshqa fanlar bilan integratsiyalashadi.



Matematik ertaklar. Matematik mazmunga ega bo'lgan ertaklarda yuqoridagi sifatlarning hammasi saqlanadi, Faqatgina ertak qahramonlari har xil raqamlar, geometric figuralardan iborat bo'ladi hamda ularning mazmunida matematik tasavvurlar yotadi. Matematik ertaklardan yangi mavzuni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanish samarali natija beradi. Qulay bo'lishi uchun ertakni qismlarga ajratitish tavsiya etiladi.

“0 haqida ” matematik ertak.

1. Uzoq-uzoqlarda raqamlar mamlaklari bo'lgan ekan. Unda haqiqiy raqamlar yashar ekan. Faqat 0 yalqov va nohaqligi bilan ajralib turardi.

2. Sahroning u yog'ida, uzoqda Arifmetika degan qirolicha paydo bo'libdi. Qirolicha raqamlar mamlakatining aholisini o'ziga xizmatga chaqirgan ekan, Qirolichaga xizmat qilishni hamma xohlab qolibdi. Raqamlar mamlakati va Arifmetika qirolichasi o'rtasida cho'l bor ekan. Uni 4 ta daryo kesib o'tardi. Qo'shish, Ayirish va Ko'paytirish bilan Bo'lish daryolari. Arifmetika qirolligiga qanday borsa bo'ladi? Sonlar birlashishga va sahroni kesib o'tishga qaror qilishibdi.

3. Ertalab tong sahar, quyosh nurlari endi yerga yetgan payt, sonlar yo'lga chiqishipdi va nihoyat Qo'shish daryosiga yetib kelishipdi. Sonlar daryodan suv ichmoqchi bo'lishipdi, lekin daryo “Juft-juft” bo'lib turinglar va qo'shilinglar, o'shanda suv beraman” debdi.

4. Hammasi daryoning aytganini qilishipdi. Daryoning istagini yalqov Noljon bajardi, lekin unga qo'shilgan son rozi bo'lmapti: chunki daryo qo'shilmada nechta son bo'lsa, shuncha suv keldi, qo'shilma esa sonidan farq qilmasdi.

5. Quyosh yanada isitarmish. Keyin ayirish daryosiga yetib kelishipdi. U ham suv uchun pul so'radi: “Juft bo'lib kattasidan kichigini ayirilsa, suv beraman, kim ko'p javob bersa, o'sha ko'proq suv oladi”, debdi. Nol bilan birga turgan son yana xafa bo'lib qolibdi.

6. Issiq cho'ldan sonlar yana keta boshladilar. Ko'paytirish daryosi sonlardan ko'payishini so'rabdi. Nol bilan ko'paytirilgan son umuman suvsiz qolishipdi. Ular arang Bo'lish daryosigacha yetib kelishipdi.

7. Bo'lish daryosida hech kim nol bilan birga turishni hohlamabdi. O'sha paytdan boshlab hech qanday son nolga bo'linmaydi.

8. Lekin, Arifmetika qirolichasi hamma sonlarni nol bilan yarashtiribdi. U sonning oldiga nolni qo'yib boshlabdi va son bundan 10 barobar ko'payibdi va sonlar yaxshi yashab boshladilar.

Ertakni o'qib bo'lgandan keyin bir qator savol berish orqali tahlil qilishsh mumkin:

-Nima uchun raqamlar mamlakati deyilgan?

-0 raqami nimani bildiradi?

-Arifmetika qirolichasi matematikada nima bilan shug'ullanadi?(son va ular ustidagi amallarni o'rganadi).

-Qanday daryolar Raqamlar va Arifmetika qirolligini ajratib turgan?...

Agar topshiriqda qoldirilgan joylar bo'lsa, o'qituvchi o'sha joyiga e'tibor qaratadi va ba'zilarini ertakning mazmunidan tushunib olish mumkin, ba'zi amallarni doskada yozib qo'yilsa ham bo'ladi.

Masalan, 6-qismda “0 bilan birga turga son umuman suv.....”

8- qismda “U sonning yoniga 0 qo'yib yozishni boshladi, va son bundan marta”

O'qituvchi bolalardan ayrim joylarida ertakni davom ettirishlarini so'rashi yoki ertakni vazifa sifatida topshirishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan usullarni kombinatsiyalash ham mumkin. Bunday ertaklar takrorlash va mustahkamlash darslarini qiziqarli bo'lishiga asos bo'ladi. Ertak va unga tegishli bo'lgan savollar tarbiyaviy natija beradi va o'quvchilarni matematik tafakkurlarini rivojlanishiga yordam beradi. Ertak - masalalar. Qiziqarli masalalar o'rtasida ertak masalalar alohida o'rin egallaydi. Ertak- masalalar ertaklardagi biror- bir vaziyatni matematik tilga o'tkazishdir. Bularda ertak obrazlari va ertak syujetlari bor. Umuman olganda, ertak va matematikaga mos kelmaydigan tushunchalar, qiziq voqealarni matematik masalalarga aylantira oladi. Aynan shunday birikma o'qish jarayoni uchun foydali, chunki o'qituvchi ertak orqali bolaning emotsiyasiga yo'l topadi. Boshlang'ich sinfda ertaklar ayniqsa geometrik materiallarni o'rganishda yordam beradi, chunki bu materiallar yuqori rivojlangan tasavvurni talab qiladi. Ertaklar berilgan vaqtda o'ylashga, qaror qilishda kerakli ma'lumotni topishga va foydalanishga yordam beradi.



**KIMYO FANINI O'QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.**

Axadov Usmon Piyos o'g'li
G'ijduvon tuman 63-IDUMI
kimyo fani o'qituvchisi.

Annotatsiya; ushbu maqolada kimyo fanini o'qitishda AKTdan foydalanishning afzal tomonlari, animatsiyalar, video darslarni ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar; ta'lim, animatsiya, bilim, kimyo darslari, video dars, atom, taqdimot.

Zamonaviy ta'limning dolzarb muammolaridan biri o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularning manfaatlarini, qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning hayotiy rejalarini ro'yobga chiqarishdir. O'qishni individuallashtirish, bilimlarni faollashtirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari, ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining shartlaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda jamiyat eng sharaflil kasb egalari bo'lgan o'qituvchilar oldiga o'quvchilarga faqatgina bilim berish emas, balki ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishdek dolzarb masalani qo'yimoqda.

Ta'limning oddiy texnik vositalardan farqli ravishda, AKT o'quvchilarga ko'p sonli tayyor, qat'iy tanlab olingan, tegishli ravishda tashkil etilgan bilimlarni taqdim etish bilan bir qatorda, o'quvchilarning intellektual, ijodiy qobiliyatlarini, yangi bilimlarni mustaqil egallash, turli axbarot manbalari bilan ishlash malakalarini rivojlantirishga imkon beradi. Electron darsliklardan foydalanish quyidagi didaktik masalalarni hal etishga yordam beradi:

- fan bo'yicha tayanch bilimlarni o'zlashtirish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish;
- juda chalkash savollarga javob berishga o'rgatish;
- AKTdan foydalanib, o'quv materialini bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- umuman o'qishga va fanni o'zlashtirishga motivatsiyani shakllantirish;

Kimyo fan sifatida yuqori darajadagi abstract mazmunga ega. Kimyoda biz kimyoviy voqealarni "makro-darajada" kuzatamiz, "miro-darajada" talqin qilamiz va tushuntiramiz, "ramziy darajada" (formula, tenglama va boshqalar asosida) taqdim etamiz. Haqiqatdan ham o'quvchi uchun bilimlar va mazmunning uch darajasini muvofiqlashtirish juda murakkab. Bugungi kunda veb va interaktiv o'qitish, animatsiya, modellashtirish va foydalanish imkonini berayotgan AKT sohasida erishilgan taraqqiyot kimyoni tushinishni yengillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Kimyo darslarini o'qitishda AKTning ahamiyati juda katta hisoblanadi. Yangi mavzuni tushintirishda, o'quvchilarda kimyoviy tushuncha va moddalar haqidagi tasavvurlarni uyg'otishda, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kimyo darslarini taqdimot, animatsiya va videodarslar orqali o'tish dars samaradorligini oshiradi. Animatsiya taqdimotni jonlantirish uchun ishlatiladi. Animatsiya yetarli bo'lmagan joylarda videolarni joylashtirish mumkin.

Masalan, "Atom-molekulyar ta'limot. Kimyoviy element, kimyoviy belgi" mavzusida 7-sinf o'quvchisi ko'zga ko'rinmaydigan atomni, molekulani tasavvur qilishi, yoki 9-sinflarda "Elektroliz" mavzusida elektroliz jarayonining kechishini o'quvchilar tasvirlashi qiyin. Agarda shuni AKT orqali animatsiya ko'rinishida o'quvchilarga ko'rsatilsa ularning bu ma'lumotlar haqidagi tasavvurini kengaytiradi, mavzuni tushinarli qiladi.

Kimyo fani darslarida yangi materiallarni tushintirish, takrorlash va mustahkamlashda yana video darslardan foydalanish yaxshi natija beradi. Video darslar orqali material qulay va tushinarli taqdim etiladi. Men o'z darslarimda har bir mavzudan taqdimot tayyorlab, shu asosida o'quvchilarga bilim, ko'nikma hosil qilaman. Bundan tashqari kimyo fanida amaliy mashg'ulotlar ham muhim o'rin tutadi.



Amaliy mashg'ulotlarni bajarishda ham taqdimot va videodarslardan foydalanish o'quvchilarda mavzuga doir ko'nikmalarni oson hosil qiladi. Kimyo fanini o'qitishda AKTlardan samarali foydalanib, dars jarayonlarini tashkil etish bugungi ta'lim tizimining asosiy vazifasidan biridir. Shunday ekan biz o'qituvchilar har bir darsimizni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va AKT yordamida olib borsak, o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish ortadi, dars samaradorligi yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuxammedov R. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari” T-2015
2. Sayidahmedov N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” T-2003



ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR SAMARADORLIGI

Botirova Hilola Abdurovibovna

Xovos tuman 7-maktab tarbiya va huquq fani o‘qituvchisi.
xov7maktab@umail.uz

Abdushukurova Rahima Xalikulovna

Guliston shaxar 8-maktab tarbiya va huquq fani o‘qituvchisi.
+998972241909

Annotatsiya: Maqolada maktabdagi ta’lim jarayonida pedagogik texnologiya usullaridan sifatli foydalanish to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida bilim olishni rivojlantirishi haqida qisqacha yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: ta’lim jarayoni, pedagogik texnologiyalari, samaradorlik, elektron darslik, elektron taqdimot.

*Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi.
(Alisher Navoiy)*

Ta’lim va tarbiya jarayonini sifat va samaradorligiga erishishda maktab kutubxonasining o‘rni beqiyosdir. Maktab kutubxonasining yangi bilimlar manbai sifatidagi o‘rni- axborotni ommalashtirish va shaxsning o‘z-o‘zini qaror toptirishga ko‘maklashishda ko‘rinadi.

Insonning har qanday ongli faoliyati ilgari o‘zlashtirgan axborotlarni qay darajada egallaganligiga asoslanadi. Kishining amaliy-kasbiy mahorati faoliyatlarga doir axborotlar egallanish darajasiga bog‘liq ekan, demak, kutubxonachining bilimlilik pirovard natijasi ham o‘quvchining kitobxonlik darajasini belgilaydi.

Hozirgi ta’lim–tarbiya tizimini rivojlantirishda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish alohida ahamiyatga ega. Umuman tarbiya jarayonida faoliyat va munosabatlarni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirish innovatsion yondashuv deb qabul qilinmoqda. Kitobxonlar bilan ishlash tizimini olib borishda kutubxonachi o‘quvchi shaxsini hurmat qilish, uni e‘zozlash, kechirimli bo‘lish, kitob bilan ishlash jarayonida o‘zini-o‘zi rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratish, unga nisbatan do‘stona munosabatda ish yuritish ehtiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati iqtidori, ichki imkoniyatlarini ishga solishni maqsad qilib olishi kerak. Kutubxonachi shu jarayonda sub’ekt-sub’ekt hamkorligida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni ijodiy muhitda olib boradi va kutilgan samaradorlikka erishadi.

Modellashtirilgan dars real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan modelini auditoriyada yaratish va ularda o‘quvchilarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta’lim olinishini ko‘zda tutuvchi metodlar majmuidir.

Hamkorlikda o‘rganish o‘quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta’lim olinishini ko‘zda tutadigan metodlar majmuidir. O‘rganishning tadqiqot-izlanish modeli o‘quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo‘naltiradigan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko‘zda tutuvchi metodlar majmui hisoblanadi.

O‘quvchiga markazlashgan o‘quv jarayonining maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi. Ta’lim olinishning hamkorlikda o‘rganish modeli o‘quvchilarning guruhlarida mustaqil ishlashi evaziga ta’lim olinishini ko‘zda tutadigan metodlar majmuidan iborat. Hamkorlikda o‘rganish —ta’lim beruvchi-ta’lim oluvchi” dialogidan voz kechishni va —ta’lim beruvchi - guruh-ta’lim oluvchi” ko‘rinishidagi uch tomonlama o‘zaro munosabatga o‘tishni nazarda tutadi.

Hamkorlikda guruhlarda ishlash orqali o‘rganish guruh a‘zolari va guruhlar o‘rtasida ta’lim oluvchilarning faoliyatini, ularning mustaqilligini, bir-birlari bilan muloqotda bo‘lish, hamkorlikda ishlash, o‘zaro bog‘liq munosabatlarda mas’uliyatini sezish kabi ko‘nikmalarni egallashni ta’minlaydi.

Modellashtirilgan dars real hayotdagi voqea hodisalarni o‘yin shaklida loyihalashtirib, undagi asosiy muammoni hal etishga qaratilgan yo‘l - yo‘riq va usullardan iborat modeldir. Modelashtirilgan dars-ta’lim oluvchining real hayotdagi hodisalarni tasavvur qilish asosida, unda ishtirok etishi hisobiga malaka, ko‘nikma va tajribalarni o‘zlashtirish jarayoni hisoblanadi.



O‘yinni real hayot bilan solishtirib, ular o‘rtasida bog‘lanish o‘rnatish ham dars samaradorlogini oshiradi. O‘yin ijtimoiy tajribani to‘plash va uzatishdan iborat bo‘lib, u amaliy jihatdan turli xil vaziyatlardagi xulq-atvor normalari va qoidalari orqali amaliy faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi. O‘yin metodlarining asosiy maqsadi tinglovchilarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtirokini ta‘minlash orqali ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. O‘yin har xil muammolarni hal etishdagi imitatsion faoliyatlarni tuzish uchun eng qulay asos hisoblanadi.

Ta‘lim olishning tadqiqot-izlanish shakli talabalarni izlanishga, yangiliklarga undovchi jarayonlarni hosil bo‘lishga yordam beradi. Tadqiqot o‘quvchilarga inson xatti-harakatiga nisbatan savollar qo‘yishni o‘rganish va ularga javoblarni esa faktlarni jiddiy tahlil qilish yordamida topishga ko‘maklashadi. Tadqiqot o‘quvchilarda savol qo‘yish jarayonida va javob qidirishda qiziqish uyg‘otishni nazarda tutadi. Muammolarni aniqlashda va berilgan ma‘lumotlarni tahlil qilish davomida o‘quvchilar hissiyotlarga berilishdan chetlanishga va ob‘ektiv yondashuvga o‘rganadilar. Ular har qanday bilim nisbiy ekanligini yangi ma‘lumotlar paydo bo‘lishi bilan o‘zgarishini mohiyatan tushunib yetadilar. O‘quvchilar o‘zlarining taxminlarini tekshirish va boshqalarni tasdiqlash, turli xil axborotlar va mantiqlarni qo‘llashni o‘rganadilar. Ta‘lim olishning tadqiqot-izlanish turi oliy darajada fikrlashga imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot modeli bo‘yicha tashkil etilgan dars bosqichlari darsda o‘quvchiga qiziqish uyg‘otadigan muammo yoki savol qo‘yiladi. O‘quvchilarga shu masalini yechish haqida gipoteza taklif qilinishi mumkin yoki o‘quvchilarning o‘zlari gipotezalarni ilgari surishadi. O‘quvchilar o‘zlari shu muammo haqida kerakli ma‘lumotlarni topshiradi. Turli adabiyotlarni o‘qib, jadval, grafik, xaritalarni o‘rganib, o‘z tadqiqotlarini amalga oshiradi. Olingan ma‘lumotlarga asoslanib, o‘quvchilar qo‘yilgan muammoni yechish haqida xulosa qilishadi. O‘quvchilar ilgari surgan gipotezalarni tekshinshadilar yoki yangi gipotezani shakllantiradilar.

Dars mashg‘ulotlari davomida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yaqin aloqa, ya‘ni ular o‘rtasida ikki tomonlama do‘stona aloqa o‘rnatiladi. Bu esa tarbiyaviy ma‘rifiy ahamiyatga molik bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan uzoq vaqt yaqin aloqada bo‘ladi, ma‘ruza guruhlariga nisbatan o‘quvchilarning kichik guruhlarida jonli suhbat olib boriladi. O‘zaro fikr almashiladi, turlicha qarashlarni ifoda etadi. Yangi pedagogik texnologiya talablari asosida turli usulda o‘tkaziladigan dars shakllari xilma-xil bo‘lib, ular o‘z ichiga ham an‘anaviy, ham noan‘anaviy dars tiplarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat - kelajak poydevori. // Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. T.-3- T.: Uzbekiston, 1996.
2. Yoshlar ongi, kalbi va dunyokarashini shakllantirish xozirgi kunning dolzarb masalalari. To‘plam. 2-qism - Guliston. 2006.
3. Internet ma‘lumotlar.



INFORMATIKANI O'QITISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Eshmanova Moxigul Berdiqobilovna

Yashnobod tumani 282- maktab informatika va AT fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada informatikani o'qitishdagi zamonaviy usullar tahlil etilgan bo'lib, interfaol metodlar va ularning afzalliklari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: informatika, metod, fan, ta'lim, texnologiya, metod, o'yin, didaktika

Avtomatlashtirilgan axborot jamiyatini shakllantirishning global jarayoni inson taraqqiyoti va ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni samarali hal etish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, bunday imkoniyatdan faqatgina ushbu axborot maydonida kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan jamiyat a'zolarigina foydalana oladilar. Shuning uchun, o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri yosh avlodga axborot madaniyatini va uning mafkuraviy darajasini har tomonlama yaxshilash imkonini berishdir. Ushbu muammoni hal qilishda maktabning informatika fani yo'nalishi muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, kompyuter fanlari kursining ustuvor muammolarini va uning kelajakdagi istiqbollari o'rganish va tahlil qilish muhimdir. Maktabda kompyuter fanini o'qitish muammolari va istiqbollari haqida gapirishdan oldin, biz asosiy muammoni ko'rib chiqishimiz zarur.

Informatika kompyuter texnikasini qo'llashga asoslanib inson faoliyatining turli sohalarida axborotlarni izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish masalalari bilan shug'ullanuvchi fandır.

Informatika - bu umumta'lim fanidir va unga tizimli nuqtai nazardan qarash kerak, bu o'rta ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari bilan belgilanadi. Informatikani fan sifatida qabul qilinishining qiyinchilik tomoni shundaki undagi masalalar fizika, matematika, astronomiya fanlariga ham tegishlidir va informatika fanlararo aloqadorlikka ega.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llanadi. O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Darslarda qiziqtirishdan foydalanishning boshqa shakllaridan, ya'ni rebus va boshqotirmalardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu qiziqtiruvchi metodlardan foydalanganda, o'qituvchi darsni maqsadli tashkil qilishni rejalashtiradi, ya'ni krossvord, rebus, boshqotirmalarni fanning mazmuniga mos tayyorlaydi. Darsning maqsadini aniqlaydi va kutilayotgan natijani loyihalaydi. Rebus, krossvordlar o'yinli texnologiyalarga sirasiga kiradi. “Rebus” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, “So'zlar orqali emas, balki rasmlar orqali ifodalash” ma'nosini anglatadi. Bu - biror so'z yoki atamaning rasmlar, notalar, xarflar bilan birgalikda ifodalanishi orqali hosil qilingan jumboqdir.

Hozirgi davrda o'sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi muhimdir. Ushbu masalaning hal etilishi ko'p jihatdan o'qitishning interfaol metodlarini qo'llashga bog'liq. Darslardagi interfaol faoliyat o'zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyati nazorat topshiriqlarini birgalikda echishga olib keladigan muloqotli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Interfaol metodlardan foydalaniladigan o'quv jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarini va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni echishga, alternativ fikrlarni chamalab ko'rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, bahslarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga o'rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o'yinlar, ijodiy ishlar qo'llaniladi, hujjatlar va



axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi. Interfaol o'qitish tashkilotchilari uchun, sof o'quv maqsadlaridan tashqari quyidagi jihatlar ham muhimdir:

- guruhdagi o'quvchilarning o'zaro muloqotlar jarayonida boshqalarning qadriyatlarini tushunib etishi;

- boshqalar bilan o'zaro muloqotda bo'lish va ularning yordamiga muhtojlik zaruratining shakllanishi;

- o'quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish.

“Bumerang” texnologiyasi. Informatika darslarida ushbu metodni quyidagicha qo'llash mumkin:

Mavzu: “Kompyuterlar. Kompyuterlarning qurilmalari va vazifalari” (5-sinf, Informatika).
Tarqatma materiallar:

1-guruhga – Kompyuterlar qanday tuzilgan?

2-guruhga– Ma'lumotlar qanday saqlanadi?

3-guruhga – Kompyuterlarning qanday qo'shimcha qurilmalari mavjud?

4-guruhga – Kompyuterlar qanday ishga tushiriladi?

Mening fikrimcha ta'limda ko'plab innovatsion usullar samarali bo'lib, ayniqsa ta'limda aniq maqsad qo'yish yoki fanlararo bog'lash, aniq maqsadga erishish ko'p foydali xisoblanadi. «Maqsadli yondashuv» uslubi ta'limda o'quvchi, talabalarni ijodiy fikrlashga, fanning mazmun mohiyati va maqsadini o'rgatadi. U nafaqat o'quv-bilim faoliyatini tizimlashtiradi, jadallashtiradi, balki ta'lim oluvchilarning umumiy madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi, predmetlararo bog'lanish tufayli maqsadlar turli darajada namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Muradova N.K., Majidov R.R., Xayitmatov U.T., Maxmudova B.A. Kasbiy ta'lim uslubiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006.

2. Novosardova S.A., Gaynutdinova F.X., Otajonov U.A. Metodika prepodavaniyakursa “Informatika”: Uchebnoe posobi e. – T.: TGEU, 2003



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TABIATNI ESTETIK QABUL QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Murodova Nasiba Jabborovna

Xovos tuman 9-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Xov9maktab@umail.uz

Baxshullayeva Komila Alijon qizi

Xovos tuman 9-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Xov9maktab@umail.uz

Annotatsiya: Maqolada maktabdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatni estetik qabul qilishi, tabiatni asrashi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Boshlang'ich ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar yordamida dars jarayonini tashkil etish haqida qisqacha yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalari, tabiat, estetika, ko'nikma.

Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi.

Alisher Navoiy

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatuvchanlik xususiyati kuchli bo'ladi. Ular har bir narsani qo'l bilan ushlab ko'rishlari, kattalarning tushuntirishlarini chin dildan tinglashlariga qaramay, atrofda voqea-hodisalarda ko'p narsalarni payqab ololmaydilar, chunki ular o'zlarining hissiyot va qiziqishlarini qo'zg'atuvchi ta'sirlarga ko'proq e'tibor beradilar, muhim bo'lsa ham hayajon uyg'otmaydigan narsalarga e'tibor bermaydilar. Bolalarning kattalar e'tibor bermaydigan narsalar tafsilotini payqab olishlari shu bilan tushuntiriladi, chunki ular uchun bu jiddiy ahamiyatga ega. Shunga ko'ra bolalarni tabiatshunoslik ob'ektlari bilan tanishtirib borishda ularning jozibaliligiga, go'zalligiga alohida e'tibor bermoq zarur.

Bunda boshlang'ich sinfdan o'tiladigan “Tabiiy fan” va “Tabiatshunoslik” darsliklari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda ko'p rasmlar bor, rasmlarda atrof-olamning jismlari, yurtimizning boy o'simliklari, dala, bog' va polizlarda, zavod va fabrikalarda kishilarining qahramonona mehnati aks ettirilgan. Aynan shunday rasmlarga o'quvchilar e'tiborini jalb qilish kerak, toki ular yordamida kichik yoshdagi o'quvchining hissiy tuyg'ulariga ta'sir qilinsin, tabiatga, jonajon o'lkaga, odamlarga qiziqish va muhabbat uyg'onsin. Rasmlarni sharhlay turib, o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini tabiatning yorqin bo'yoqlariga, sevgan ishlarini bajarayotgan odamlarning ruhlangan yuzlariga, inson mehnatini yengillashtirayotgan mashina va mexanizmlarga qaratmog'i lozim.

Tabiatga sayohatlar, olingan materiallarni to'plash va ishlash, tabiat kalendarini yuritish, tirik burchakdagi mashg'ulotlar, sinfdan tashqari o'qishlar tabiatshunoslik darslarida boshlangan o'quvchilarning estetik tarbiyasini to'ldirishi hamda chuqurlashtirishi kerak. Estetik tarbiyada ko'rgazmali qurollarni (suratlar, sxemalar, tablitsalar, mulyajlar, maketlar, gerbariylar, hayvonlar tuxumlarini) to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Ular chiroyli, jozibador, qiziqishni qo'zg'atuvchan bo'lishi kerak. Bunday qurollardan foydalanish badiiy didu-farosatni rivojlantiradi, materialni yaxshiroq o'zlashtirish va esda saqlab qolishga yordam beradi, fanga muhabbatni singdiradi.

Estetik tarbiyaning samarali vositalaridan biri tabiatshunoslik darslarida mashhur rassomlar chizgan suratlarning nusxalaridan foydalanish va o'qituvchining badiiy asarlardan parchalarni sharhlab o'qishidir, chunki tabiatni shoirona qabul qilish, uni chuqurroq tushunish hamda go'zalligini his etishga yordam beradi.

Biroq rassomlik asarlarini odatdagi ko'rgazmali qurollarga tenglashtirib bo'lmaydi, chunki ko'rgazmali qurol faqat borliqni aks ettiradi, rassomlik asarlarida rassomning shaxsi ham kiritilgan bo'ladi, chunki u haqiqatdan nusxa ko'chirmaydi, balki asarga o'z munosabatini, o'zining chuqur, hatto juda murakkab kechinmalarini kiritgan bo'ladi. Ko'pincha u boshqalar hech narsa ko'rmagan joyda go'zallikni ko'radi. O'qituvchining vazifasi musavvirning fikr va hislarini o'quvchilarga yetkazishdir.

Bolalarning estetik hislarini rivojlantirishga, didu-farosatlarini shakllantirishga va bilim doiralarini kengaytirishga tabiat qo'ynida ekskursiyalar o'tkazish katta ta'sir ko'rsatadi. Tabiatni o'rganish uni estetik qabul qilish bilan uyg'unlashishi kerak, chunki kishi tabiatni qancha chuqurroq idrok qilsa, shuncha u insonga shodlik bag'ishlaydi, uning oldida tabiat har tomonlama namoyon



bo‘ladi.

Bolalarda tabiatdagi mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash kerak. Jonli tabiat burchagi, o‘quv-tajriba uchastkasidagi ishlar, uy vazifasi va yozgi topshiriqlarni rasmiylashtirish, sinfdan tashqari ishlar shunga xizmat qilishi mumkin. Biroq barcha e‘tibor faqat tabiat ob‘ektlari bilan zavqlanishga qaratilsa, estetik tarbiya ta’sirli bo‘lmaydi.

Tabiatshunoslikni o‘qitish jarayonida estetik tarbiya har tomonlama, rejali ravishda, o‘quvchilarning tabiat bilan muloqotda bo‘lishlarining barcha shakllarini hisobga olgan holda olib borilmog‘i lozim.

Tabiatshunoslik mashg‘ulotlarida o‘quvchilarda tabiatga, atrofda odamlar mehnatiga odobiy munosabatda bo‘lishni tarbiyalash zarur. Ammo boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bir o‘zi uchun odobiy tarbiyaning barcha tomonlarini qamrab olish qiyin. Bu butun maktabning vazifasidir. Boshlang‘ich sinflarda esa ish tutishda (jamoat mehnat jarayonida, ekskursiyalarda, tirik tabiat burchagida, maktab oldi uchastkasida) aks etadigan odobiy dunyoqarash shakllantirilmog‘i lozim.

Tabiatga odobiy munosabatda bo‘lishni tarbiyalash ishi barcha, hatto eng sodda holatlarda ham amalga oshirilmog‘i zarur. Masalan, ekskursiya vaqtida o‘quvchilarni gerbariy uchun ko‘p miqdorda o‘simliklarni yig‘ishdan to‘xtatish, gerbariy uchun yaxshisi begona o‘tlardan, to‘kilgan barg va mevalardan foydalanish kerakligini, gerbariy uchun noyob, ayniqsa «Qizil kitob»ga kiritilgan o‘simliklardan foydalanish mumkin emasligini, guldasta uchun ko‘plab gullar uzmaslikni tushuntirish kerak. Bunda bu talablar nimalar bilan bog‘liqligini, albatta tushuntirish kerak. Tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklarini ko‘paytirish ana shular bilan boshlanadi. Tabiat muhofazasining ahamiyatini tushunish, o‘simlik va hayvonlarni qo‘riqlash atrof olamga ehtiyotlik munosabatini tarbiyalaydi.

O‘lkashunoslik ishlari, maktab uchastkasidagi mehnat, ekskursiyalarda jonajon o‘lkani o‘rganish o‘quvchilar xotirasida chuqur iz qoldiradi, o‘z o‘lkasiga muhabbatni mustahkamlaydi, uning boyliklarini qo‘riqlash, ulardan oqilona foydalanish zarurligi to‘g‘risidagi ongini shakllantiradi. O‘lka tabiati, uning boyliklari, xo‘jalik xususiyatlari bilan tanishtirish o‘quvchilarning sinfda olgan bilimlarini xalqimizning turmushi va mehnat faoliyati bilan bog‘lashga yordam beradi. Masalan, «Foydali qazilmalar» va «Mamlakatimiz tabiatining xilma-xilligi» mavzulari (4-sinf «Tabiatshunoslik» darsliklari).

Tabiatshunoslikni o‘qitish jarayonida o‘quvchilar e‘tiborini olimlarining fanni rivojlantirishdagi roliga qaratmoq, ularning vatanparvarligini, mehnatsevarligini, o‘z xalqiga muhabbatini ta’kidlamog‘i zarur. Bu bolalarda tabiiy iftixor, buyuk namunalarga taqlid qilish xohishini vujudga keltiradi. Vatan mavzusi butun boshlang‘ich tabiatshunoslik ta’limi orqali o‘tib boradi. Tabiatshunoslik darslarida u atrof tabiatni bilib olishda ulkan tabiatning Uzoq Sharqdan tortib to janubiy yo‘l va sahrolargacha manzarasi bilan tanishishda gavgdalanadi. Biroq tabiat manzarasi faqat xalqning katta bunyodkorlik faoliyatini ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qilishi kerak. Yagona intilish bilan o‘z Vatani yana ham kuchli va qudratli qilishga jalb qilingan o‘lkamiz xalqlarining hayotidan olingan aniq misollar o‘quvchilarda vatanparvarlik va baynalmilalchilik tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: —Fanl, 2006.
2. Babayeva D. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. TDPU. 2018.
3. Internet ma’lumotlar.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nazarova Guljamol Chingizovna

Xovos tuman 9 – IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Xov9maktab@umail.uz

Gulmurodova Habiba Toshtemirovna

Xovos tuman 9 – IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bugungi kunda butun dunyoda axborot texnologiyalari keng ko'lamda rivojlanmoqda. Shubhasiz, ta'lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini kiritish zarurdir. Zamonaviy jamiyat axborot uzatish hajmi va tezligi jihatidan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan harakterlanadi.

Maktabdagi ta'lim jarayonida o'quvchilar axborot texnologiyalari yordamida matn bilan ishlashni, tasviriy ob'ektlarni va ma'lumotlar bazasini yaratishni, elektron jadvallardan foydalanishni o'rganadi. O'quvchilar axborot yig'ishning yangi usullarini, ulardan foydalanishni o'rganishadi, ularning dunyoqarashi kengayadi. Darslarda axborot texnologiyalarining ishlatilishi o'qishga bo'lgan motivatsiyasini, o'quvchilarning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Kompyuter axborot texnologiyalari bilan birgalikda ta'lim sohasida, o'quvchilarning o'qish va ijodkorligida yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Ta'lim xaqiqatan ham hayotimizga butun hayot faoliyati davomida kirib kelaveradi.

Axborot texnologiyalarini qo'llashda shaxsning barcha qobiliyatlarini – qiziquvchanlik, odob-ahloq, ijodkorlik, muloqot va estetik qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga harakat qilish kerak. Bu qobiliyatlar kerakliha yuqori darajada ruyobga chiqishi uchun pedagogning axborot texnologiyalari sohasidagi bilimdonligi zarur. Mamlakatimizda ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKTdan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan axborot texnologiyalari ta'limning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim — ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab «ko'nikmalar maktabi» bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi — ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatleri ta'lim jarayoniga AKTni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz.

Masalan: Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalarning dastlabki tushunchalarini o'qitishda ba'zi fikrlarni yuritimiz.

—Axborot so'zi lotincha —informatsion so'zidan olingan bo'lib, kutilayotgan yoki bo'lib o'tgan voqea, xodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni bildiradi. Axborot tushunchasi bir qancha fanlarda turlicha izohlagan. Masalan: Falsafada axborot inson ongiga ta'sir etib, ob'ektiv reallikni aks ettiruvchi va harakatlantiruvchi kategoriya sifatida ishlatiladi. Kibernetikada, informatika fanida axborot voqea -hodisa to'g'risidagi bilimlarni oshirish yoki noaniqlikni kamaytirish mezoni sifatida qo'llaniladi. Kompyuterlarni ishlatish faoliyatida esa axborotdan boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi ob'ekt sifatida foydalaniladi. Axborot tushunchasi ma'lumot tushunchasi bilan uzviy bog'langan, lekin har qanday ma'lumot axborot bo'lavermaydi. Masalan: olma desak, bir necha xil ma'noni tushunish mumkin: qizil olma deganda, mevaning ma'lum bir rangi tushuniladi, demak barcha ma'lumotlar axborotga aylanishi uchun voqea - hodisa to'g'risidagi butun xususiyatlarni ifodalashi lozim.



Hozirgi kunda barcha axborotlarni nisbiy holda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Texnik axborot
2. Agrobiologik axborot
3. Siyosiy axborot
4. Huquqiy axborot
5. Iqtisodiy axborot va boshqalar

Axborotning turlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldirib boradi. Bu axborotlar ichida iqtisodiy axborot asosiy hisoblanib, ular hajmining 80% ni tashkil qiladi.

Barcha axborotlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Uzlaksiz hosil bo‘lish.
2. Xarf raqamlarda ifodalanish.
3. Diskret xarakterdaligi.
4. Yig‘ish, uzatish, qayta ishlash va boshqa amallarni bajarish mumkinligi.

Iqtisodiy axborotni o‘lchashda turli xil birliklardan foydalanish mumkin. Masalan: Axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va saqlashda bit, bayt, Kilobayt, Megabayt o‘lchov birliklaridan foydalaniladi.

1 bayt - 8 bit, 1 Kbayt - 1024 bayt qayd qilish jarayoniga ko‘ra axborotning o‘lchov birligi sifatida belgi, so‘z, jumla, abzats va boshqa birliklardan foydalanish mumkin.

Iqtisodiy axborot tuzilish nuqtai nazaridan ikkiga bo‘linadi:

1. Fizik tuzilish
2. Mantiqiy tuzilish

Fizik tuzilish iqtisodiy axborotni turli xil tashuvchilarida joylashishini ifodalaydi. Mantiqiy tuzilish esa axborot bo‘laklari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini ifodalaydi.

Fizik tuzilishni o‘rganish uchun informatika sohasiga tegishli bo‘lgan maxsus fanlarni o‘rganish talab qilinadi. Shuning uchun ham biz mantiqiy tuzilishni o‘rganish bilan chegaralanamiz.

Axborot texnologiyalarini barcha o‘quv fanlarda qo‘llash mumkin. Darslarda o‘quv va o‘yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili va Rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo‘yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilari uchun turli didaktik materiallar to‘plamidan foydalanib, ko‘rgazmali-mashq, nazoratmashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan axborotlar ro‘yxati:

1. “Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi”. Toshkent 2015
2. Boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash. Toshkent 2014
3. R. Ishmuhamedov, M. Yuldashev. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent - 2013
4. Internet ma‘lumotlari.



STEAM – YONDASHUVINING O’ZIGA XOSLIGI

Nurullayeva Durдона Olimboyevna

Urganch shahar 1-son maktab o’qituvchisi

Telefon: +998 (97) 452 82 57

n.durdona_1school@umail.uz

Maxmudova Luiza Sultannazirovna

Urganch shahar 28-son maktab o’qituvchisi

Telefon: +998 (93) 755 44 39

luiza.sultannazirovna_28@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM dasturining mazmun-mohiyati hamda, STEAM yondashuvi asosida maktablarda darsdan va sinfdan tashqari mashg’ulotlarni tashkil etish yuzasidan ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: STEAM, S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - san’at, M – matematika, Ijodiy fikrlash, Muhandislik yondashuv, Tanqidiy fikrlash, Dizayn asoslarini.

Bugungi kunda STEAM-ta’lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo’llashda beshta sohani yagona o’quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta’limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o’zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo’lib, bunad ular fikrlarni to’plashi va fikrlar almashadi.

STEAM yondashuvi tufayli o’quvchilar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o’rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o’z-o’zini namoyon qilish asoslarini o’rganishadi, o’z navbatida, o’quvchilar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi.

STEAM (S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - san’at, M - matematika) ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv.

O’z-o’ziga ishonchni shakllantirish. Bu yondashuvda o’quvchilar o’z qo’llari bilan yaratgan ko’prik va yo’llar, samolyotlar va avtomobillarni "ishga tushirib", suv osti va havo tuzilmalarini "rivojlantirib", sinovdan o’tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan “mahsulot”ni qayta-qayta sinovdan o’tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o’zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g’alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g’alaba, o’zlarining qobiliyatlariga ko’proq ishonch uyg’otadi.

Faol muloqot va jamoaviy ish. STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo’rqmaslikka o’rganadilar. Ko’pincha, stol atrofida o’tirmaydi, o’zlarining dizaynlari asosidagi “mahsulot”larni sinovdan o’tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta’minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do’stlari bilan muloqot qilish bilan band bo’lishadi.

Texnik fanlar bo’yicha qiziqishlarni rivojlantirish. STEAM ta’limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo’yicha, qilgan ishni yaxshi ko’rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. STEAM – bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo’lib, bolalarning zerikishlariga to’sqinlik qiladi. Ular vaqt o’tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamaydilar.

STEAM yondashuvi asosida maktablarda darsdan va sinfdan tashqari mashg’ulotlarni tashkil etish orqali o’quvchilarning bo’sh vaqtlarini ijobiy tashkil etish, o’quv fanlariga bo’lgan qiziqishlarini orttirish, kasbga yo’naltirish, o’zlashtirishlariga ijobiy ta’sir etadi.

Ta’limda bu yangi yondashuv qanday paydo bo’ldi?

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba’zi maktablar o’zlarining bitiruvchilarining kareralarini rivojlantirishga e’tibor berishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi, shuning uchun STEM tashkil etildi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik unga san’at qo’shildi va STEAM tashkil etildi. O’qituvchilar, bu fanlarni yoki bu fanlarga oid bilimlarga ega bo’lish, maktab o’quvchilarini kelajakda yuqori malakali mutaxassislar bo’lishiga yordam beradi deb hisoblaydilar. Natijada o’quvchilar yaxshi bilim egallash va bilimlarini qo’llashga harakat qiladilar.



G'oyalar haqiqatga aylanadi. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bu bilimlarni o'rgatish va ishlatish bo'lsa, demak, STEAM yondashuvi olingan bilimlarni haqiqiy hayotga mahorat bilan qo'llashni o'rgatishdir. Bu maktab o'quvchilariga faqatgina ba'zi g'oyalarga ega bo'lishni emas, balki ularni haqiqatda ishlatish va amalga oshirish imkonini beradi. Haqiqatda ishlatilishi mumkin bo'lgan bilimlar haqiqatda qimmatlidir.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi Massachusetts Texnologiyalar Instituti (MIT). Bu mashhur universitetining shiori “Mind and hand” – “Aql va qo'l” dir. Massachusetts Texnologiya instituti STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba'zi o'quv yurtlarida STEAM ta'lim markazlari yaratildi.

STEAM yondashuvi o'rganish va ta'limga bo'lgan munosabatimizni o'zgartiradi

Xulosa qilib aytmoqchimanki, o'rta maktabda STEAM yondashuvi bolalarga tajribalar o'tkazish, dizayn modellarini yaratish, mustaqil musiqa va kino yaratish, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirish va yakuniy mahsulotni yaratishni rag'batlantiradi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariy va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va oliy ta'limda o'qishni yanada osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 05.09.2018 yildagi № PF-5538 Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 6 aprel 2018 yil 187-son Qarori.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNI CHIROYLI YOZUV MALAKASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Omonova Gulchehra Karimovna
G'allaorol tumani 2-maktabning
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bizga ma'lumki, maktab ta'lim tizimida chiroyli yozuv juda muhim va buni o'rgatish boshlang'ich sinfdagi amalga oshiriladi. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirishning ham bir necha usullari bo'lib, bular quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Na'munaga qarab yozish. Chiroyli yozuvga o'rgatishning eng asosiy usullaridan biri-harflarni namuna qilib ko'rsatish va yozdirishdan iborat. Harf namunasini doskada barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda ayrim o'quvchilarga daftarga alohida-alohida ko'rsatib berish lozim. O'quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllarini (harf, bo'g'in, so'zlar) o'z daftariga to'g'ri aks ettirishdir. Doskada yozib ko'rsatilayotgan har bir harf barcha o'quvchilarga aniq ko'rsatib turishilishi shart, agar ayrim o'quvchilar uni ko'ra olmagan bo'lsalar, qaytadan takrorlab ko'rsatishimiz lozim. Ayniqsa, yangi harf yoki ularning bog'lanishini ko'rsatish vaqtida qayta-qayta takrorlash juda muhimdir.

Namunaga qarab ko'chirib yozish. Biz bu usuldan ancha yillardan beri foydalanamiz. O'quvchilar, harflarning shaklini “Husnixat”dagi yoki “Yozuv daftar”dagi namunaga qarab ko'chirib yozadilar. Namunaga qarab ko'chirib yozish, tayyor harfning ustidan yozishga nisbatan ancha qiyin. Tayyor holdagi nuqtalar ifodalangan harflar ustidan qo'lni yurgizib mashq qilish ixtiyorsiz jarayon bo'lib, o'quvchilar asosan bu topshiriqni bajaradilar. O'quvchilarning daftarlarida o'qituvchi tomonidan yozib ko'rsatilgan har bir namuna chiroyli va aniq yozilishi lozim. “Husnixat” darsligida berilgan namunaga qarab yozdirish o'qituvchining vaqtini tejaydi hamda unumli ishlash uchun imkoniyat yaratib beradi. Buning uchun “Husnixat” har bir o'quvchining oldida bo'lishi lozim.

Nusxa ko'chirish. Bu usulni harf shaklini to'g'ri tasavvur eta olmaydigan, yozishda daftar chiziqlaridan pastga tushib yoki chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llash mumkin. Masalan, bir o'quvchi B harfini yozishda xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, o'qituvchi uni nuqtalar bilan ifodalab, daftarga qalamda yozib ko'rsatadi, o'quvchi esa uning ustidan siyoh yurgizib chiqadi. Bu usul o'quvchining shu daftar harf tasavvurini kengroq shakllantiradi. Ayrim o'qituvchilar chiroyli yozuvga o'rgatishning dastlabki davrlarida o'quvchilar harf va uning unsurlari haqida turli tasavvurga ega bo'lishlari uchun yupqa xitoy qog'oz (kalka) dan ham foydalanadilar. Bunday mashqlar faqat qo'l harakatini o'stirish yordam beradi, xolos. Uzoq muddat bu usulda yozgan bolalar harflarning shaklini mustaqil yoki namunaga qarab yozishda qiynaladilar. Shuning uchun nusxa ko'chirish usulidan faqat yakka-yakka mashq qilishda foydalanish lozim.

Tasavvur orqali yozish. Tasavvur orqali yozish deganda biz havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qilishni tushunamiz. Bunda biz doskada yozilgan harfni havoda qo'limiz harakatlari yozib ko'rsatishimiz mumkin. O'quvchilar tasavvur hosil qilganlaridan so'ng daftarga yozishga ruxsat etiladi. Bunday mashqlar o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi va jismoniy mashqlarni bajarishlariga imkoniyatlari ortadi.

Harflarning shaklini tahlil qilish. Harf va unsurlarini tahlil qilishni turlicha amalga oshirish mumkin. Harflar turli unsurlardan tashkil topgan. Ayrim harflar bir necha unsurdan tashkil topgan bo'lib, ular bir butun shaklda yoziladi, ammo biz uning nechta unsurdan iborat ekanligini faqat eslatib turishimiz mumkin.

Sanoq-ohang usuli. Bu usuldan foydalanishda o'qituvchi harf va uning unsurlarini sanash orqali yozdirib tushuntiradi. Bu usulni ayniqsa savod o'rgatish davrida keng qo'llash mumkin. Sanoq-ohang usulining afzalligi shundaki, birinchidan, u harflarning tekis yozilishini ta'minlaydi va harf unsurlarining tushib qolishiga yo'l qo'ymaydi, ikkinchidan, sekin yozadigan o'quvchilarni tez va sinfdagi barcha o'quvchilar bilan barobar yozishga undaydi, uchinchidan, o'quvchilarga harakatlarni aniq va dadil bajarishni o'rgatadi, to'rtinchidan, sinfdagi darsni jonlantirishga yordam beradi.

Xatolar ustida ishlash. Bu usulni qo'llashdan maqad har bir o'quvchining o'z xatosini mustaqil topa olishiga va uni tuzatishga o'rgatishdir. O'quvchilarning o'z yozuvlaridagi harflarning to'g'ri yo'l noto'g'ri qiyaligini baland yoki past yozilganligini tekshirib chiqish topshiriladi. O'quvchilar



navbati bilan o`zlari yo`l qo`ygan kamchiliklarni aytib beradilar, ayrim o`quvchilarga o`qituvchi yordam beradi. Undan tashqari o`quvchilar o`z kamchiklarini yozuv daftarida yoki “Husnixat” darsligida berilgan namunaga qarab taqqoslash orqali ham tuzatishlari mumkin.

Biz ta`lim berish jarayonida chiroyli yozishni shakllantirishning ushbu usullari asosida darslarni olib borsak, biz ta`lim berayotgan yosh avlodning bilimlari mustahkamlanib, yozuvlari chiroyli bo`lishini ta`minlagan bo`lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Gulomov, K. Tursunova, D. Po`latova “Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish” Uslubiy qo`llanma Toshkent “Turon Iqbol 2013.
2. Munavvarxon Yo`ldosheva. “O`quvchi yozuvi nega xunuklashadi?” Ma`rifat gazetasi 2018-yil



BOSHLANG‘ICH MATEMATIKA O‘QITISH METODIKASI PREDMETI VA MAQSADI

Abduraxmonov Hasanboy

Xorzm vil. Bog‘ot

Tumani 30-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon: +998885171266

Boltayeva Maxpira

Xorazm vil. Bog‘ot tumani 30-maktab

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon: +998901849942

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasining predmeti va maqsadi haqida so‘z boradi. Shuningdek, dars jarayonida o‘qituvchi bajarishi kerak bo‘lgan vazifalar yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Metodika, ta‘lim, rivojlanish, o‘qitish vositalari.

1997 yilda «Ta‘lim to‘g‘risida qonun» qabul qilindi. Bu qonunda ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar davrida maktabning roli yanada o‘sganligi, maktabning bosh vazifasi – o‘quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berish ularda iqtisodiy - matematik savodxonligini shakllantirish, hayotga va ongli kasb tanlashga tayyorlash haqida, hamda o‘quv reja va dasturlarni ta‘lim mazmunini hozirgi zamon yutuqlari va talablari darajasiga keltirish to‘g‘risida fikrlar keltiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida deyarli barcha predmetlar, jumladan matematikadan ham yangi o‘quv dasturi kiritiladi, o‘qitish metodlari takomillashtiriladi. Boshlang‘ich sinflar uch yil o‘rniga 4 yillik ta‘limga otkazildi. Boshlang‘ich sinflarning matematikadan yangi dasturlarga o‘tish munosabati bilan, yangi metodik tizim ishlab chiqildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o‘qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o‘qituvchi matematika o‘qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya‘ni boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini egallagan bo‘lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak.

Matematika metodikasi pedagogika fanlari tizimsiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog‘i bo‘lib, jamiyat tomonidan qo‘yilgan o‘qitish maqsadlariga muvofiq matematika qonuniyatlarini matematika rivojining ma‘lum bosqichida tadqiq qiladi. Matematika boshlang‘ich ta‘lim metodikasining predmeti qo‘yidagilardan iborat: Matematika o‘qitishdan ko‘zda tutilgan maqsadlarni asoslash. (nima uchun o‘qitiladi). Matematika o‘qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (ya‘ni matematikadan qaysi material boshlang‘ich sinflarda o‘rganilishi, nima uchun aynan shu material tanlanishi, boshlang‘ich sinflarda kursning har qaysi ayrim masalasi umumlashtirishning qanday darajasida o‘rganilishi, mavzular qanday tartibda o‘rganilsa, eng ratsional bo‘lishi ko‘rsatiladi). O‘qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish. (qanday o‘qitish kerak, ya‘ni oquvchilar hozirgi kunda zarur bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalarni va aqliy qobiliyatlarini egallab oladigan bolishlari uchun oquv ishlari metodikasi qanday bo‘lishi kerak? Masalan, 10 ichida sonlarni qo‘shish va ayirishni qanday o‘rganish kerak, jumladan, bu mavzuda qo‘shishning o‘rin almashtirish xossasini qanday ochib berish kerak?). O‘qitish vositalarini - darsliklar, didaktik materiallar, ko‘rsatma - qo‘llanmalar va texnik vositalarni ishlab chiqish (nima yordamida o‘qitish?). kerak! Ta‘limni tashkil etishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta‘limning darsdan tashqari formalarini qanday o‘tkazish?. O‘quv ishlarini qanday tashkiliy metodlarda otkazish kerak?. O‘quv prosessida ta‘limiy va tarbiyaviy masalalarni qanday qilib samaraliroq hal qilish kerak?). Shunday qilib, o‘qitishning maqsadlari, mazmuni metodlari, vositalari va shakllari metodik tizimning asosiy komponentalaridir. Boshqa har qanday o‘quv predmeti kabi matematika boshlang‘ich kursi matematika O‘qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi: - Matematika o‘qitishning umumta‘limiy maqsadi. - Matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi. - Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi. Bundan tashqari, dastur asosida o‘quvchilarga o‘qitish jarayonida olgan bilimlarning ishonchli ekanligini tekshira bilishga o‘rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim. Matematikani o‘rganish o‘quvchilarning o‘z ona tillarida nutq madaniyatini to‘g‘rishakllantirish, o‘z fikrini aniq, ravshan va lo‘nda qilib bayon eta bilish malakalarini o‘zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bunday bilimlar berish orqali esa o‘quvchilarning fazoviy



tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi. Boshlang‘ich matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi: - o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; - o‘quvchilarda matematikani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarni tarbiyalash.

Adabiyotlar

1. Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika o‘qitish metodikasi. – T.: Ilm-Ziyo, 2003.
2. Ahmedov M. va boshqalar. 4-5-sinf matematika darsligi. – T.: Ma’naviyat, 2003.
3. Bikboyeva N.U. va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1996.



BIOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH USULLARI

Ro'zimatova Lobar Boltaboyevna

Urganch shahar 1-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (94) 310 51 02

rb.lobar_1school@inbox.uz

Turgunova Gulzodaxon Shuxratbek qizi

Urganch tumani 50-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (33) 343 43 26

turgunova.gulzodaxon_50@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi, sitologiya va genetika asoslari darslarida xar-xil turdagi dars mashg'ulotlari o'tkazish orqali o'quvchilarni fanga qiziqtirish va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish haqida.

Kalit so'zlar: Kasbga yo'naltirish, botanika darslari, odam va uning salomatligi darslari, sitologiya va genetika asoslari darslari, ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar, xalq tabobatida.

Biologiya darslarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish uchun biologik bilim beribgina qolmasdan bu bilimlarni hayotga tadbiq qilishni chuqur o'rgatish lozim.

Agar o'quvchilar har bir fandan olgan bilimlarini hayotga tadbiq etolmasa, amalda ulardan foydalana olmasa, bu fan quruq fan bo'lib qolaveradi, o'qituvchining mehnati zoyo, o'quvchining vaqti behudaga sarflangan hisoblanadi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda biologiya fanining tutgan o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu fan hayot haqidagi fan bo'lib o'quvchilarni tirik tabiatni bizni o'rab turgan borliqni o'rganishga, unga do'sona munosabatda bo'lish, muhofaza qilish, avaylab asrashga oquvchilarni o'rgatadi. Shu bilan bir qatorda oquvchilarga dunyoviy bilimlar berishga asoslanadi. Fanning o'qitish nazariyasi o'quvchilarni kasbga yo'llashda muhim ahamiyatga egadir. Biologiya o'quv fanini o'qitishni boshqa fanlardan farqi shundaki u faqatgina nazariy bilimlar berib qolmasdan amaliyotga tayanadi. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, ochiq tabiatga va tarixiy joylarga sayohatlar tashkil qilish. O'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi va kasb tanlashga undaydi.

Botanika darslarini o'qitishda o'quvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qituvchi qiziqarli dars mashg'ulotlarini tashkil qilishi. Masalan: “Dorivor o'simliklar” mavzusini o'rganishda o'quvchilar o'simliklarni shifobahshlik xususiyatlarini o'rganadilar va ulardan kundalik hayotida foydalanishga harakat qiladilar. Xalq tabobatida ham bunday o'simliklardan foydalanish inson salomatligini saqlashni muhim omili ekanligini o'quvchilar anglab yetadilar. Shuni bilan bir qatorda ularning o'zlari dorishunoslik kasbiga mehri qo'yadilar. “O'g'itlash” mavzusini o'rganish orqali o'quvchilarda agronomiya sohasiga qiziqish oshadi. (O'simliklar sistematikasini bobini o'rganish orqali o'quvchilarda seleksionerlik, bog'bonlik kasbiga havas uyg'onadi).

Odam va uning salomatligi o'quv fani o'quvchilarni asosan shifokorlik kabini tanlashga yaqindan yordam beradigan o'quv fani hisoblanadi. O'quvchilar bu fanni o'rganish orqali o'z salomatligini saqlashni, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishni o'rganib oladilar. Buni esa sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ahamiyati katta bo'lib o'quvchilarni jismonan baquvat bo'lishga undaydi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya o'qituvchilari, murabbiylik kasbiga ham yo'naltiradi.

Sitologiya va genetika asoslari darslarida o'quvchilar tirik tabiatning o'zaro birligi, bog'liqligini, elementar birligi hujayra ekanligini bilib oladilar. Bu fanni o'rganish orqali o'quvchilarni genetika, seleksiya faniga bo'lgan qiziqishlari yana ham oshadi. Ayniqsa hozirgi kunda dolzarb masalaga aylangan sog'lom turmush tarzini shakllantirish, reproduktiv salomatlikka o'quvchilarda qiziqish kuchayadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni genetiklar, seleksanerlar, biologlar kabi hodimlar bo'lib yetishishiga zamin yaratadi.

O'qitilayotgan fanlarga qiziqishlariga qarab o'quvchilarni uch guruhga bo'lish mumkin.

1. Ijtimoiy fanlarga qiziquvchi o'quvchilar.
2. Tabiiy fanlarga qiziquvchi o'quvchilar.
3. Umum ta'lim maktablarida o'rganilayotgan barcha fanlarga qiziquvchi o'quvchilar.



Ayrim o`quvchilar o`z tanlagan kasblarini o`zi qiziqqan fan bilan bog`lab, «Men biologiya talab qiladigan sohada ishlashni hohlayman» deydilar.

Biologiya fanini maktabda o`qitilayotgan boshqa fanlarga, jumladan ishlab chiqarishga, texnikaga, qishloq xo`jaligiga, medisinaga bog`lab o`tish mumkin. Men quyida o`rta maktab biologiya fanida o`qitilayotgan ba`zi mavzularni turli kasblarga qanday bog`lash mumkinligiga misollar keltiramiz:

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Tolipova J.O. Biologiyani o`qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oily ta`lim muassasalari talabalari uchun darslik. Toshkent-2014 y.
2. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo`lajak o`qituvchining loyihalash faoliyati. Metodik qo`llanma. - T.: TDPU, 2014 yil. 6,5 b.t



INNOVATION FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH USULLARI

Ruzmetov San’at Farxodovich

Urganch shahar 28-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (97) 362 58 00

sf.ruzmetov_28@inbox.uz

Soparboyeva Surayyo Sanatovna

Shovot tumani 23-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (99) 289 69 92

soparboyeva.surayyo_23@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagoglarning innovatsion faoliyati va uni amalga oshirish jarayoni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion faoliyati, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, ta’lim texnologiyalar, pedagogik tadqiqot metodlari, muammoni tahlil, novatorlik darajasi, kommunikativ qobiliyat

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari orasida innovatsion ta’lim texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) yangilik kiritish degan ma’noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi. Barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham innovatsiyalar negizida o‘qitish jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvlarning mohiyati yoritiladi.

Pedagogning innovatsion faoliyati bu ta’lim jarayonidagi har qanday innovatsion o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga yangiliklarning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi. Pedagogning bu boradagi faoliyati “innovatsion faoliyat” deb yuritiladi.

Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablarning bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat. Bu kabi faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyatning asosiy belgilari quyidagilardir:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish.

Innovatsion faoliyat – pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. V.Slasteninning fikriga ko‘ra innovatsion (ijodiy) yondashuv:

- ijodiy faollik;
- faoliyatga yangilik (o‘zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;
- yangicha fikrlash;
- yuksak muomala madaniyatiga ega bo‘lishni ifodalaydi.

Ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etish to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo‘ljallanayotgan ta’lim tizimini loyihalash.
3. O‘zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O‘zgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion faoliyat – ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi



takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat. Innovatsion faoliyat yangi g‘oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta‘lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo‘nalitirilganligi sababli o‘qituvchidan yangicha yondashuvni talab qiladi. O‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to‘siqlar mavjud. Bularning birinchisi o‘qituvchining o‘zi ko‘nikkan faoliyatchegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya‘ni o‘qituvchilarda ijodkorlikning yetarli emasligi bo‘lsa, yana bir sabab yangi va noma‘lum narsalar har doim odamlarda cho‘chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir. Innovatsion faoliyat o‘qituvchining hamma muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat bo‘lib, u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir.

Pedagogda ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuvni qaror toptirish bosqichlari. O‘qitish jarayoni yoki ta‘lim tizimiga innovatsion yondashuvni qaror toptirish o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. Bu jarayon bir necha bosqichda kechadi. Ular quyidagilardir:

1-bosqich: tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi;

2-bosqich: mavjud tizimga ayrim yangi g‘oyalar, metodlar kiritiladi.

3-bosqi: yangi g‘oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlari ishlab chiqiladi.

4-bosqich: pedagog o‘qitish va tarbiyalashga oid o‘z konsepsiyasi yoki metodikasini ishlab chiqadi.

Pedagoglarning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi.

Shu bilan birga pedagogning innovatsion faoliyatini uning motivatsiyasi, malakaviy tayyorgarligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishga oid bilim va malakalari, pedagogik faoliyatdagi muammo (to‘siq)larni bartaraf eta olish mahorati bilan ham belgilanadi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining asosiy belgilaridan biri uning ijodiy faolligi, ijodkorligi hisoblanadi. O‘qituvchidan yangiliklarnio‘zlashtirib borish bilan birga ularni o‘z faoliyatida qo‘llashi va pedagogik jamoa o‘rtasida targ‘ib qilishi talab etiladi. Pedagoglarda innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda jamoadagi psixologik muhit, jamoa a‘zolarining jahon ta‘lim yangiliklardan xabardorliklari muhim ahamiyatga ega. Pedagogning ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuvining natijalari

quyidagilarda ko‘rinadi:

- faoliyat maqsadini aniq belgilab olishida;
- nostandart vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilishida;
- o‘quv yoki ilmiy-tadqiqot jarayoni bilan bog‘liq masalalarni samarali echish usullarini egallay olganligida;
- muammolarni hal etishda eng samarali vosita va metodlarni tanlay bilishida;
- o‘z ustida mustaqil ishlashni rejalashtira olishida;
- faoliyati natijasini nazorat va tahlil qila olishida;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining mavjudligida;
- yangi g‘oyalarni izlab topa olishida.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pedagogik mahorat. Mavlonova R., Abdurahimova D. T.: Fan va texnologiyalar. 2012-yil
2. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiyasi va intergatsiyasi. O‘quv qo‘llanma R.A.Mavlanova, N.X.Raxmankulova T. G‘.G‘ulom, 2013 y
3. Interfaol metodlar:mohiyati va qo‘llanilishi (Metodik qo‘llanma) -T.: “TDPU nashriyoti”, 2012



XALQARO BAHOLASH DASTURLARI VA ULARNI TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Ruzmetova Saida Kamiljanovna

Urganch shahar 28-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 791 92 51

saida.kamiljanovna_28@inbox.uz

Atamuratova Matluba Polatovna

Urganch shahar 3-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 790 41 43

matluba.polatovna_3@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro baholash dasturlari va ularni ta'lim jarayonidagi ahamiyati hamda avzalliklari haqida.

Kalit so'zlar: Xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, milliy markaz, yo'l xarita, xalqaro aloqalar.

Dunyo ta'lim tizimida tan olingan va juda ko'plab mamlakatlarda joriy etilgan xalqaro baholash dasturlari quyidagilar:

The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun.

Xalqaro baholash dasturlarini mamlakat ta'lim tizimiga joriy etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish vazifasi davlat inspeksiyasi huzurida yangi tashkil etilgan Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi zimmasiga yuklatilgan.

Quyidagilar Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib belgilangan:

- xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

- ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

- ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

- xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

- o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Xalq ta'limi vazirligi 2019 yil 1 fevralga qadar Milliy markaz bilan birgalikda o'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini umumiy o'rta ta'lim



muassasalarining 1-sinfidan boshlab aniqlash va rivojlantirish, o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishni ta'minlash dasturini ishlab chiqadi. Bundan tashqari, xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlari mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish, o'quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini takomillashtirish va 2019-2021 yillarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borish, xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollarni o'zida mujassam etgan o'quv dasturlari asosida qo'shimcha metodik qo'llanma va adabiyotlar yaratish, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahar hamda har bir tuman (shahar)da xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan tayanch maktablarni belgilash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi iqtidorli pedagog kadrlarni xalqaro baholash

dasturlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlanganlik va Internet jahon axborot tarmog'iga ulanganlik holatini inventarizatsiya qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish choralari ko'rish vazifalarini ham amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi xalqaro tadqiqotlar o'tkaziladigan o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash hududiy mintaqaviy va tarmoq markazlarining o'quv dasturlariga xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borish, xalqaro tadqiqotlar dasturlarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib,

davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida loyihalar tayyorlash singari vazifalarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Milliy markazning murojaatiga asosan uni belgilangan tartibda zarur aloqa vositalari, shu jumladan hukumat aloqa vositalari bilan ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi yuzasidan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan hamkorlik shartnomalarining imzolanishini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Abdullayeva Sh. Ta'limda o'qituvchi shaxsi va o'quvchi faoliyatini uyg'unlashtirish texnologiyalari. // Molodoy uchyony, 2016 yil. 9-son.
2. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. Toshkent, 2005. 3-26 betlar.
3. Azizxo'jayeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. T.: TDPU, 2000.
4. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4, 60-73 betlar.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING DIQQATINI JAMLASH, DARSGA QIZIQISHINI OSHIRISH BO'YICHA YANGI METOD VA TEKNOLOGIYALAR

Sa'dullayeva Kunduzxon

Xorazm viloyati Xiva tumanidagi
17-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning darslarga qiziqishini oshirish bo'yicha tavsiyalar va bunda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, metod, texnologiya, jarayon, ta'lim, innovatsiya.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamdagi o'zgarishlar, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar, maktab tizimi, texnologiyalardan foydalanish jarayonlari bizni e'tiborimizni albatta tortadi. Yangi O'zbekiston poydevorini quruvchilari bo'lmish yosh avlodni tarbiyalashda ularga xalqaro toifadagi bilimlarni berish va jahon standartlariga mos ravishda adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jamiyatda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimida katta yutuqlarga olib keladi.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim nazariyasida o'qitish (ta'lim) metodlari markaziy o'rin egallaydi. «Metod» yunoncha (metodos) so'z bo'lib, «yo'l», tatbiq qilish kabi ma'nolarni anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlaridir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish toboro keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmalarini egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega.

Metod tanlashda ko'proq interaktiv metodlarga e'tibor qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Interaktiv usullar - bu o'zaro harakat, ya'ni hamkorlik asosida o'qitish demakdir. Interaktiv usullarning asosiy turlari: 1. Kognitiv usullar, o'yinlar, eksperimental faoliyat. 2. Ishbilarmonlik o'yinlari, modellashtirish. 3. Amaliyot orqali o'qitish, bevosita faoliyat.

Boshlang'ich sinflarda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmunida o'ziga xos hamda o'quvchi shaxsida o'ziga mos kompetensiyani shakllantiradi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim mazmuniga zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, komil inson etib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida kompetensiyadan foydalanish darslarning xilma xil shakllari o'qitishni takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Darslarni “Bumerang” texnologiyasi, “Arra”, “O'z o'ringni top”, “FSMU”, “Nima uchun?”, “Ikki qismli kundalik” metodlari, “Pinbord” usuli, “She'rni tikla” kabi mashqlaridan foydalanib o'tish dars samaradorligini yanada oshiradi.

“O'z o'ringni top” metodi. Mavzu bo'yicha bahs-munozarali vaziyatlarda muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan. Bunda o'quvchilar o'z fikrini bayon qilishi, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi va dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

“Arra” metodi. Mazkur metodga ko'ra kichik guruh 4-5 o'quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a'zolari yangi mavzu yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydilar. Guruh ichida o'quvchilar rivoyat matnini qismlarga ajratib, bo'lib oladilar. Har bir o'quvchi o'ziga tegishli qismini puxta o'zlashtirib “mutaxassis”ga aylanadi. Ma'lum vaqtdan so'ng har bir kichik



guruhdagi “mutaxassis”lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o’tkaziladi. Shu tarzda rivoyat mazmunini barcha o’quvchilar o’zlashtirib oladilar.

Yuksak ma’naviyatga ega bo’lgan, barkamol, sog’lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizning ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang’ich ta’lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o’taydi. Darslar jarayonida bolani qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o’rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, o’quvchini o’qish, bilim olishga ishtiyoqini o’stirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo’lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo’lamiz.

O’qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko’rishida metodlar va metodik usullarni tanlashi - bu ularning o’zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo’yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida o’quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta’minlashga sharoit yaratiladi. To’g’ri qo’llanilgan metodlar ob’ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg’ulotning ilmiy- nazariy darajasini oshiradi.

Pedagogik texnologiya - bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo’naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayoni mazmunidir. Har qanday pedagogik texnologiya o’zaro hamkorlik, muloqot, ularning bir-birlariga ta’sirlari eng zamonaviy talablarga javob bergan holda, o’qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo’llari, umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va uslublar bilan qurollangan bo’lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.G’offorova .”Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. “Tafakkur nashriyoti”- 2011.
2. J.Yo’ldoshev, S.Usmonov, ”Pedagogik texnologiya asoslari”, T.,2004.
3. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi - 2000.



**TABIATSHUNOSLIK FANIDA “MANZARALI O‘SIMLIKLAR” MAVZUSINI
O‘TKAZISHDA VENN DIAGRAMMASI METODINING AFZALLIGI**

Saidova Roza Sharipovna

Xorazm viloyat Urganch tuman 19-son maktab
Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta‘lim jarayonida o‘quvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirish haqida so‘z yuritiladi.


Kalit so‘zlar: Zamonaviy pedagogik texnologiya, bilimlar va ko‘nikmalarning hosil bo‘lishi va to‘planishi topshiriqlarni, Interaktiv metodlar

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta‘lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining markazida ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta‘lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta‘lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta‘lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta‘lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e‘tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta‘lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta‘lim oluvchining tashabbuskorligi va mas‘uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraf lama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Interaktiv metodlar-bu jamoa bo‘lib fikrlash o‘zaro harakat qilmoq deb yuritiladi, ya‘ni pedagogik ta‘sir etish usullari bo‘lib, ta‘lim mazmuni ning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshadi. Venn diagrammasi metodida o‘quvchi manzarali darxtnlarning barglarini kuzatib ularni oddiy yoki murakkab barg turlari haqida tasavvurga ega bo‘ladi. O‘quvchiga ushbu tarqatma material berilib, ularning umumiy va xususiy belgilari haqida fikr almashinadi.

Venn diagrammasi



Venn diagrammasi mazkur mavzu uchun qo‘llash talabalarni bilimlarini mustaqil oshirish, mustahkamlash va adabiyotlar ustida ishlashda imkon yaratadi va qiyoslash qobiliyatini oshirishda yuqori samara beradi.



1-topshiriq

			1-topshiriq
	Oddiy barglar	Umumiy xususiyati	Murakkab barglar
1	Bir yaproqdan tuzilgan	Barg o'simlikning yashil organi bo'lib, xavoni kislorog bilan boyitadi, fotosintez qiladi va boshqa muhim fiziologik jarayon haqida fikrlar to'ldiriladi.	Bir necha yaproqdan tuzilgan
2			
3			
4			
5			
6			

2-topshiriq. O'quvchilarda bir qancha manzali va mevali daraxtlarning rasmlari yoki novdalari berilib, ularning barg tuzilishlar “+” ishorasi bilan belgilanadi.

Oddiy barglarga xos bo'lgan belgilar	Oddiy va murakkab barglarga uchun xos bo'lgan belgilar	Murakkab barglarga xos bo'lgan belgilar
1. +	1.Chinor	1.
2.	2. Shumtol	2. +
3.	3. Olma	3.
4.	4. Tol	4.
5.	5. Oq qayin	5.
6.	6. Terak	6.
7.	7. Eman	7.
8.	8. O'rik	8.
9.	9. Uzum	9.
10.	10. Shoyi akatsiya	10.
11.	11.Tut	11.

Darslarimizda mavzularga oid bo'lgan O'zbekistonda o'sadigan daraxtlardan foydalandik, dars jarayonda yangi pedagogik texnologiyalardan “Venn diagrammasi” metodidan foydalanish samaradorligi to'g'risida to'xtalib o'tdik. Bu albatta ta'lim samaradorligini oshishiga xizmat qiladi hamda o'quvchilarda shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari shakllanishiga va fanni yuqori darajada o'zlashtirib olishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilar o'z ustlarida ko'proq mustaqil ishlash ma'sulyatini oshiradi, chunki interfaol metodlarda o'qituvchining roli katta bo'lib, doimiy boshqaruvni amalga oshiradi va o'quvchilar doimiy nazoratda bo'ladi hamda o'quvchilarni to'g'ri yo'l sari yo'naltiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi, izlanuvchanliklarni oshiradi, savollar yordamida muammoning yechimini topishga undaydi.



BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Nurmetova Sayyora Jabbarovna
Raximova Sadoqat Ravshanbekovna
Urganch shahar 18-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998 93 868 40 08

Annotatsiya: O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim va ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali tashkil etish lozimligini taqozo etadi. O'zbekistonda qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlash bugungi kunda pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashishning usullariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Pedagog, faraz, interfaol metod, pedagogik nazariya, “Aqliy hujum” metodi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta'lim jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv –vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogi jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir. Ta'lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra, ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan, u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi.

Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash barcha ta'lim muassasalarining oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyasidir. Boshlang'ich sinflarda “O'qish” darslarida matnlar berilgan bo'lib, shulardan biri “Alisher Navoiy” matnidir. Matn badiiy va ilmiy uslubda berilgan. Mashq shartida matnlarni taqqoslab, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash topshirilgan. Mazkur matni “Aqliy hujum” metodi yordamida o'rganish ko'zlagan maqsadga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu metod asosida matn bilan bir necha bosqichda olib boriladi.

1-bosqich. O'quvchilarni mavzuni tushunishga tayyorlash. O'tgan mashg'ulotlarda berilgan nutq usullariga oid ma'lumotlar esga olinadi va takrorlanadi, har bir nutq uslubining o'ziga xos xususiyatlari yodga olinadi. Chunki matnlarni taqqoslash uchun o'quvchilarda nutq uslublariga oid ma'lumotlar yetarli bo'lishi kerak. Nutq uslublariga oid bilimlar yodga olingandan so'ng har ikki matn o'quvchilar tomonidan mustaqil o'qib chiqiladi. O'quvchilar matn mazmunini tushunishga harakat qiladilar.

2-bosqich. Berilgan matnlarning o'xshash tomonlarini aniqlash. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savolni beradi? Har ikki matn qaysi jihatdan birbiriga o'xshaydi? O'quvchilar mazkur savolga shunday javob beradilar:

- har ikki matn ham Alisher Navoiy haqida:
- matnning mazmuni bir xil:
- har ikki matndan ham Navoiy ijodi haqida fikr bildirilgan:
- har ikkala matnda ham shoirning ustozlari nomlari keltirilgan:
- Navoiyning turkiy tilda ijod qilganligi aytilgan:
- Navoiyning jahonga tanilgan shoir ekanligi aytilgan
- Forsiy shoirlarning Navoiy ijodiga munosabati ifodalangan.

O'qituvchi o'quvchilarning Navoiy ijodiga umumlashtiradi va o'z munosabatini bildiradi.

3-bosqich. Har ikki matn asosida badiiy va ilmiy uslubga xos xususiyatlarni aniqlash. Bu bosqichda har bir uslubning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Birinchi matnda badiiy uslubga



xos quyidagi xususiyatlar qo'llangan: tasviriy ifoda .

Ikkinchi matnda ilmiy uslubga xos quyidagi xususiyatlar qo'llangan: raqamlar (1441 yil tug'ilgan, XV asr 60-yillar), aniq dalillar Yevropa va

Osiyo davlatlarini, Nizomiy Ganjaviy, Sadiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi tarixiy shaxs nomlari, A.Jomiyning Navoiy haqidagi fikri keltirilgan. “Alisher

Navoiy” matni shu metod yordamida o'rganilsa, o'quvchilar matn mazmunini yaxshiroq anglaydilar ularning mazmuniga chuqurroq kirib boradilar matnlarni qiyoslash orqali ularning mohiyatini teran idrok etadilar va interfaol metodlar o'quvchilarni fikrlashga, darslarda faol qatnashishga, darslarda faol ishtirokchi bo'lishiga o'rgatadi. Shunday qilib, yuqoridagi interfaol metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashish dasturi amal bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O. Umumiy pedagogika Toshkent: 2007-y.
2. Yo'ldashev O. Pedagogika Toshkent: 2008-y.
3. Xasanboeva O. Oila pedagogikasi. Toshkent: 2007-y.
4. Damirov T, Adambekova T. O'yin mashg'ulotlari. Toshkent: 1993-y/



HISSIIY ZO‘RIQISHLAR VA OBSESSIVALARDAN XALOS BO‘LISH USULLARI VA TAVSIYALAR

Avezov Olmos Ravshanovich

Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsenti
olmosavezov85@gmail.com

Shavkatova Shaxnoza Po‘lot qizi

Bux.DU Pedagogika fakulteti
Amaliy psixologiya yo‘nalishi
4-1PSI-20-guruh talabasi
shahnozashavkatova20@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada hissiy zo‘riqish va miyyadan ketmaydigan fikrlar qanday vujudga kelishi va uning belgilari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari obsessivalarda mumkin bo‘lmagan amallar va obsessivalardan xalos bo‘lishdagi tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: obsessiya, affekt, sindrom, betoqatlik, uyqusizlik, befarqlik, behollik.

ANNOTATION: This article provides information on how emotional stress and obsessive thoughts occur and their symptoms. In addition, impossible actions in obsessions and recommendations for getting rid of obsessions are given.

Key words: obsession, affect, syndrome, restlessness, insomnia, indifference, restlessness.

Kirish

Hissiy zo‘riqishlar, miyyadan ketmaydigan fikrlar yoki obsessiyalar inson hayotining ma‘lum bir qismini egallab kelmoqda. Obsessiya so‘zi lotincha obsessio - “qamalda qolish”, “o‘rab olish” degan ma‘nolarni anglatadi. Shaxsda ma‘lum bir hissiy zo‘riqishlar davomida vujudga keluvchi fikrlar, g‘oyalar xohlamagan holda paydo bo‘lishi tez-tez takrorlanuvchi sindromdir. Inson ushbu fikrlarga bog‘lanib qoladi va o‘z navbatida bu fikrlar yomon xayollar va hissiyotlarga olib keladi. O‘z xohlansa ham bu fikrlardan qutula olmaydi.

Asosiy qism

Obsessiya belgilari: fikrlarning tinchlik bermasligi, betoqatlik, uyquning buzilishi, uyga sig‘may qolish, behollik, ko‘p yig‘lash, hayotdan to‘yish, tana vazning kamayishi yoki ko‘payishi, odamovilik, uydan chiqib ketish, befarqlik, bir nuqtaga tikilib turish, qo‘rslik, muloqotdan qochish.

Obsessiyaning kelib chiqish sabablari:

- Kuchli qo‘rquv
- Kuchli psixik zo‘riqish
- Emotsional holatning kuchliligi
- Yechimsiz muammolarning ko‘pligi
- Passiv xayollarning buzilishi
- Affektiv holatning ko‘pligi

Natijalar va muhokama

Obsessivalarni davolash usullari va tavsiyalar:

- Bemorning somatik holatini yaxshilash
- O‘ylashga majbur qiladigan holatlardan uzoqlashish
- Hayotga qiziqishni orttirish, orzu, umid, istaklarni uyg‘otish
- Tungi sayr
- Qisqa, chiroyli rasmlilik hikoyalar o‘qish
- Oddiyroq jismoniy zo‘riqishlarga olib kelmaydigan faoliyat bilan shug‘ullanish
- Ruhshunos nazoratida bo‘lish va treninglarda ishtirok etish
- Xotirani qo‘zg‘ovchi holatlardan saqlanish
- Bemorni yakka-tilab qo‘ymaslik

Xulosa

Har bir inson otiqcha hissiyotga berilmasdan, hayolotini jilovlab bilsa va har bir holatda o‘zini qat‘iyat bilan tuta olsa albatta bunday salbiy holatlarga duch kelmaydi. To‘g‘ri va sog‘lom turmush tarziga amal qilib yashash, dunyoqarash va tafakkurini boyitish kasalliklarga duch kelmaslik uchun qo‘yilgan ulkan qadamdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.Corey. Theory and Practice of Group Counseling. Brooks/Cole Publishing Company 2005
2. K.Nelson-Jones. The theory and practice of counseling. Cassell, 1995
3. Z.Ibodullayev “Tibbiyot psixologiyasi”
4. <http://www.ziyo.net>
5. <http://www.koob.ru/news>
6. www.academic.ru



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MATEMATIK BOSHQOTIRMALARNING AHAMIYATI

To‘rayeva Mahfuza Baxtiyarovna
Matyakubova Nazokat Qadambayevna
 Xorazm viloyati Gurlan tumani
 30-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining
 Boshlang'ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarini tashkil etish metodikasi, bu yoshdagi o‘quvchilar psixologiyasi haqida, shuningdek dars jarayonida matematik boshqotirmalarning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: matematika, boshqotirma, metodika, ta‘lim, bilim, yosh, masala.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayoni bolaning mantiqiy fikrlash salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf odatlarni o‘ziga singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi. Eng avvalo, matematik bilimlarni bolalar aniq tushunish uchun moslashtirilgan narsalarni o‘zaro bog‘liqlikda, biridan ikkinchisini hosil qilish tartibida keltirib chiqaradilar.

Boshlang‘ich matematik tushunchalar va topshiriqlar o‘quvchilarining xotirasiga boshlang‘ich sinflarda quyiladi. Darslarda matematik murakkab vazifalarni hal qilish imkonsiz bo‘ladi. Uzoq va jiddiy matematika darslari bolalarning qiziqishini so‘ndiradi. Bunda darsni o‘yin tarzda o‘tish kerak, masalan, boshqotirmalar yordamida. Qiyin vazifalarni majburan hal qilishga e‘tibor qilmaslik kerak, bolalarning o‘zlari ularni ixtiyoriy ravishda hal qilishadi.

Matematik boshqotirmalar – bu chizmalar va grafiklardan foydalanadigan bir xil topishmoqlar va jumboqlar. Ular o‘quvchilarning yoshiga qarab qiyinchilik darajasida farqlanadi. Matematik boshqotirmalarni rebus, matematik masalalar, mantiqiy masalalar va mantiqiy savollar orqali ko‘rishimiz mumkin.

O‘quvchilarning 6-10 yosh davri fikrlash tuzilmalarining shakllanishida mas‘uliyatli palla ekanligini psixologlar isbotlashgan. Mana shu paytda shakllantirilmagan qobiliyatini keyinchalik tiklash juda qiyin. Shu sababli boshlang‘ich ta‘lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang‘ich ta‘lim metodikasining asosiy vazifalaridan biri - o‘qitishning samaradorligini oshirishni ta‘minlashda materiallar(ma‘lumotlar) o‘quvchilar aqliy rivojlanishlariga ta‘sirini jadallashtirishdan iborat. Quyida ana shunday boshqotirmalarni ko‘rib o‘tamiz. Bo‘sh turgan kataklarga kerakli sonlarni qo‘yib, natijani hosil qiling (1-rasm).

4	+		+	2	15
+		+		+	15
	+	5	+	7	15
+		+		+	15
8	+	1	+		15
15		15		15	




3	+		=	9
-		-		-
2	+		=	5
-		=		-
1		3	=	4

1-rasm



Eshkklarda misollarni yeching, so'ngra ularning har birini chiziqlar bilan tog'ri javobga ega bo'lgan qayiqalar bilan bog'lang (2-rasm).



2-rasm

O'quvchilarga matematikani o'rgatish uchun didaktik o'yinlardan foydalaniladi, biroq bu o'yinlar, birinchidan mantiqiy va matematik mazmun bilan boyitilgan bo'lishi, ikkinchidan ular mashg'ulotning o'zida emas, balki undan oldin yoki keyin o'tkaziladi.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarni boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning matematik amallar bajarishni o'rganishini tashkil etish didaktik prinsiplarini o'rganish va ularga individual yondashish darajasi bo'yicha bilish topshiriqlarini, ularni xal etish jarayonida cheklash shart-sharoitlarini belgilashdan iborat bo'ladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarining matematik amallar bajarishni o'rganishini tashkil etish didaktik prinsiplarini o'rganish va ularga individual yondashish, bilim olish faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bola birinchi marta jamoat tomonidan baholanuvchi faoliyatga kirib boradi. Bu faoliyat barcha o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan qoidalardan iborat bo'lib, uning muvaffaqiyati birgina o'quvchiga emas butun jamoaning faol harakatini talab etadi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarining matematik amallar bajarishni o'rganishini tashkil etish didaktik prinsiplarini o'rganish va ularga individual yondashishni tashkil etishda o'qituvchi yetakchi rol o'ynaydi. Uni shaxsi, bilimi va o'quvchilarga bo'lgan munosabati, metodik mahorati - bular bari ko'rib chiqilayotgan masalani muvaffaqiyatli yechilishida katta ahamiyatga ega. Ayni paytda o'quvchilarning rivojlanish darajasi, bilim doirasi kabi omillar ham ta'sir etadi. Barcha omillar birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Aynan o'qituvchi o'quv materialini tizimlashtirib, ta'lim va uslub shaklini har bir o'quvchining qobiliyati va imkoniyatini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T., 2005.
2. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari T. 2006 y.
3. Xudoynazarov E.M. Matematika o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). T.2020.
4. www.hozir.org



O'QUVCHI YOSHLARNI MA'NAVIY – AXLOQIY TARBIYALASH METODLARI VA ULARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Usmanov Jasur Rasulovich

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi
248-maktabning tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni va uning zaruriyati, shuningdek o'quvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda qo'llaniladigan metodlar haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'quvchi – yoshlar, ma'naviy tarbiya, ma'naviyat, axloq, axloqiy tarbiya, ijtimoiy-axloqiy.

Jahon mamlakatlari taraqqiyotidan ma'lumki, har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi unda yashovchi aholining ma'naviy-axloqiy saviyasi nechog'lik yuksakligiga bog'liq. Bugungi ba'zi bir yoshlar ma'naviyatining qisman buzilayotganligi, ayrimlarining bizga mutlaqo yot bo'lgan urf-odat, madaniyatga berilib ketayotganligi, voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida turli bezorilik, jinoyat sodir etish hollari uchrab turishi barchamizni tashvishga solmoqda. Shu jihatdan, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash zamonaviy maktab ta'limining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra, o'quvchilarni ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qiqlar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish maqsadi ko'zlanadi.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash quyidagi yo'nalishlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1-yo'nalish. O'quvchilar ongida ma'naviyat, odob, axloq va axloqiy sifatlar kabi tushunchalarni shakllantirish.

2-yo'nalish. Mavjud nazariy tushunchalar asosida ularda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish.

3-yo'nalish. Ularda ijtimoiy va tabiiy borliqqa nisbatan ijobiy axloqiy munosabatni shakllantirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari deganda, o'quvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usullari yig'indisidir. Ma'naviy-axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlarini quyidagicha tasnif etish mumkin: mashq, o'rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hokozolar.

Mashq - ma'naviy-axloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta'sirli metodidir. Unga qoidalarni mashq qildirish - foydali odatlarni qaytarish kiradi. Eslatish, o'rgatilgan tajribani yangilash, nazorat - o'rgatilgan odatning to'g'ri va samarali ekanligini tekshirish, o'z-o'zini nazorat qilish, tarbiyalanuvchini faollashtiruvchi shaxsiy gigiyena qoidalari, ovqatlanish madaniyati, ko'chada, shaxsda xulq-atvor madaniyatini egallashni mashq qildirish bunga misol bo'la oladi. Mashq qildirish natijasida o'quvchida malaka va odatlar tarkib topadi. Mazkur omillar orasida mashqning hajmi va sur'ati hamda kutiladigan natija o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlik mavjud: mashq qanchalik ko'p va tez-tez bajarilsa, uning yordamida shakllantiriladigan sifatlar shunchalik tez rivojlanadi.

Talab - tarbiyalash maqsadida o'quvchidan biror narsani qat'iyat bilan so'rab turish bo'lib, o'quvchilarning ma'lum bir faoliyatini rag'batlaydi yoki bartaraf etishga xizmat qiladi. Taqdim etish shakliga ko'ra bevosita va bilvosita talab farqlanadi. Bevosita talab uchun qat'iylik, aniqlik, mohiyatning tushunarli bo'lishi xos bo'lib, keskin ohang, yuz harakatlari uyg'unligi aks etadi. Bilvosita talab (maslahat berish, yalinish, ta'kidlash, qaytarish) bevosita talabdan farqli ravishda o'quvchida qayg'urish, qiziqish, intilish kabi psixologik omillarni chaqirishga xizmat qiladi. Maslahat berish orqali o'quvchida ma'lum xatti-harakatning foydali ekanligiga ishonch hosil qilinadi. O'quvchi qachonki bildirilayotgan fikrni o'zi uchun muhim ekanligiga ishonch hosil qila olgandagina maslahatni qabul qiladi. Yalinish - agarda boshqa talab qilish ko'inishi kor qilmasligiga ko'zi etsa, o'quvchi qalbida mehmi yangilash, uyg'otish maqsadida uni biror narsaga



ko‘ndirish uchun iltimos qilish, o‘tinib so‘rashdir. Ta‘kidlash - o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan har bir vaziyatda, ularga malol kelmaydigan axloqiy mazmuni uqtirib, tayinlashdir. Qaytarish - o‘quvchi jahli chiqib, qizishib biror korhol, yomonlik qilishga qaror qilsa yoki vajohati shuni ko‘rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo‘ya ishdan, xatti-harakatdan o‘zini tutishga undash, tiyish. O‘rgatish - o‘quvchiga biror ish-harakat (masalan, turli joy va vaziyatlarda o‘zini tutishni, gapirishni va boshqalar) bajarish usulini, yo‘l-yo‘rig‘ini tushuntirish, bildirish va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilish. Mazkur metodni to‘g‘ri qo‘llash qoidalariga quyidagilar kiradi: 1. O‘qituvchi va o‘quvchilar tarbiya maqsadiga doir aniq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim. Ayniqsa, o‘quvchi o‘rgatilayotgan ish-harakatning nima uchun xizmat qilishini tushunib yetmasa, o‘qituvchining harakati zoe ketadi. 2. Ish-harakatni bajarishga o‘rgatishda buyruqqa emas, tushuntirishga asoslanish lozim. Masalan: «Qo‘shnilar bilan salomlashib yursang, ular seni yaxshi ko‘rishadi», «Seni chiroyli kuladi deyishlari uchun tishlaringni yuvib yurishing kerak» va boshqalar. 3. O‘quvchilarga o‘rgatiladigan ish-harakat uchun maqbul vaqt va miqdor hisobga olinishi lozim. Odatlantirish uchun ma‘lum muddat zarur, shoshilish kerak emas. Dastlab o‘quvchini harakatlarni to‘g‘ri bajarishi haqidagi qayg‘urish, keyin uni tez amalga oshirishiga intilish zarur. 4. O‘quvchiga harakatlar qanday bajarilishini, natijasi nima bilan tugashini ko‘rsatib berish lozim. Masalan, toza va iflos poyabzal, silliq va g‘ijimlangan kiyimni taqqoslab ko‘rsatish orqali o‘quvchini bunday holatlarni bartaraf etishga o‘rgatib borish mumkin. 5. O‘rgatish doimiy nazoratni talab etadi. Nazorat chin ko‘ngildan, qiziqish bilan amalga oshirilishi, zarda-jahl tarzida bo‘lmasligi hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan uyg‘unlikda olib borilishi lozim. 6. O‘rgatish o‘yin orqali amalga oshirilsa, yaxshi samara beradi. O‘yinda o‘quvchi belgilangan qoidalarni boshqalarning majburlashisiz ham o‘z xohishiga ko‘ra bajaradi. Muammoli vaziyat o‘zining ahamiyati jihatidan mashqqa yaqin turadi, ammo uning o‘ziga xos tomoni o‘quvchida faollik, ijodkorlik, mustaqillik namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratadi. Dastlab hikoya-vaziyat tavsiya etiladi, masalan birorta hikoya ma‘lum bir yerida to‘xtatiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga hikoyadagi qahramonlar xulqini baholashni tavsiya etadi. O‘quvchilarning javoblari muhokama etiladi va hikoyadagi ijobiy, insoniy xulq haqida bir fikrga kelinadi. O‘quvchilariga avval o‘qituvchining yordamida, keyinchalik esa mustaqil ravishda muammoli vaziyatni hal etish tavsiya etiladi.

Xullas, Yuqorida ko‘rib o‘tgan metodlarimiz yosh avlodni har tomonlarga yetuk shaxs etib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Zero, ma‘naviy-axloqiy jihatdan barkamol inson ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, butun oila a‘zolari, qo‘ni-qo‘shnilari, mahalla-ko‘yi, hamqishloqlari va butun mamlakat xalqi farovonligi haqida qayg‘uradi; odob-axloqi, fe‘l-atvori yoqimli bo‘lishini insoniy burch deb hisoblaydi; milliy qadriyatlarni e‘zozlaydi va ularga sodiq bo‘lib qoladi; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ulari barqaror bo‘ladi; diyonat va adolat, mehr-shavqat va ezgulikni himoya qiladi, va‘daga vafodor bo‘lishni o‘ziga kasb qilib oladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma‘naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped.fan.dokt.dis. – T., 1993-yil.
2. Ismoilova Z. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: Istiqlol, 2003. – 150 b.
3. Quronov M. Maktab ma‘naviyati va milliy tarbiya. – T.: Fan, 1995.–118 b.
4. Maxmadaliyeva N.A., Sobirjonova M.U. “O‘quvchi – yoshlarni ma‘naviy – axloqiy tarbiyalash pedagogik muammo sifatida”. O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi konferensiya materiallari. 17-son, 10-qism. 257-258-bet.
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent 2017-yil.



ТА’ЛИМ СИФАТИНИ OSHIRISHDA BOSHLANG’ICH TA’LIMNING ROLI.

Xudayberdiyeva Gulandom Ergashevna

Xovos tuman 30 – maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Telefon raqami: +998994762891

Annotatsiya:

Maqolada ta’lim sifatini oshirishdagi o’quvchilarning maktabning boshlang’ich ta’limda olgan bilimlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, sifat, texnologiya, didaktik texnologiyalar, axborot texnologiyalari.

Bizni hamisha o’ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so’z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o’zgaryapdi. Bu o’zgarishlarni hammadan ham ko’proq his etedigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o’z davrining talablari bilan uyg’un bo’lsin. Lekin ayni paytda o’zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug’zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o’zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

(Sh.Mirziyoyev)

Asrlarga tatigulik chorak asrda farzandlarimiz erishgan ulkan uvafaqiyatlarimizning poydevor sifatida boshlang’ich ta’limning ulkan va beqiyos o’rni bor. Jannatmakon yurtimiz kelajagini barpo etishda, yani farzandlarimiz ta’lim – tarbiyasining asosi boshlang’ich sinf o’qituvchilari zimmasiga sharaffi va zalvorli ma’suliyat yukladi. Bunga yana bir aniq dalil qilib shuni keltirish mumkin. Ruxshunoslarining takidlashlaricha, inson umri davomida egallashi zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning 60-65 % kichik maktab yoshi (6-10 yoki 7-11 yosh) boshlang’ich sinf davriga to’g’ri keladi. Shu yoshda o’quvchilarga karakli bilimni, ko’nikma va malaka berib boshlang’ich sinf o’qituvchilariga berilgan imkoniyatdan 100 % foydalanish kerak.

Darslarida zamonaviy metodik vositalardan foydalanish o’qituvchiga mavzuning to’liq o’zlashtirilishiga yordam beribgina qolmasdan, o’quv jarayonida o’quvchilarning o’zlari faol ishtirok etishlarini ham ta’minldi. Bunda o’qitilayotgan fanlar o’quvchilar yoqtirmaydigan fan bo’lmasdan, aksincha, harakatchan, tushunarli va shuning uchun qiziqarli bo’ldi. Bu esa fanini o’qitishda ijobiy natijalarga erishish garovi bo’lib xizmat qiladi.

O’qituvchi o’qitishga qo’ygan maqsad va rejalashtirilgan natijalarni, asosan, didaktik texnologiyalarning to’g’ri tanlab, o’quv jarayonini va o’quv faoliyatini uyushtirish usullarini mulohaza qilib tanlaganligi ta’minladi.

Boshlang’ich sinflar ona tili ta’limi o’quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o’stirish bilan bir qatorda, juda muhim masalalarni hal etishni ko’zda tutadi.

Bunda qo’yilgan talablarga qanday erishish mumkin?

Yuqorida aytganimizdek ona tilini qonun qoidalarini to’la va mukammal bilish eng asosiy talab. Ikkinchidan o’tilishi lozim bo’lgan darsga puxta tayyorgarlik ko’rish kerak. Darsda o’zlashtirilishi lozim bo’lgan BKMLarni yoritib beruvchi, yorqin rangli ko’rgazmalar tayyorlash lozim. Darslarda foydalanish uchun multimediyali ilovalar mavjud bo’lsada, BKMLarni yoritib beruvchi, yorqin rangli ko’rgazmalarning o’rni beqiyos. Chunki bunday korgazmalar darsning oxirigacha o’quvchilarimizning ko’z o’ngida turadi. Inson ma’lumotlarni 80%ni iko’rish, 15%ni eshitish orqali qabul qilar ekan. Shuning uchun ham yorqin rangli ko’rgazmalardan foydalanish zarur. Chunki yorqin rangdagi ko’rgazmalar o’quvchilarning ushbu mavzuga bo’lgan qiziqishlarini oshiradi, demak, o’quvchining ko’rish orqali mavzuni yaxshi o’zlashtirishiga erishaman.

Ta’lim samaradorligini oshirishda kundalik hayotimizda uchrayotgan axborot texnologiyalaridan ko’proq foydalanishimiz lozimdir. Bu borada o’quvchilarni dars davomida axborot texnologiyalaridan foydalanishga o’rgatib borishimiz lozim. Bunda o’qituvchiga “Multimediya” darslari juda katta yordam beradi. O’quvchilar o’zlari mavzuga doir berilgan o’yinlarni manitorda boshqarish qobiliyatiga ega bo’ladilar.

Pedagogik faoliyatdan kelib chiqqan holda, shuni aytish joiski, o’qituvchi eng avvalo o’quvchi psixologiyasini bilmog’i lozim. Dars davomida o’z psixologik qarashlarini ishga solmog’i lozim. Buning uchun o’qituvchi darsga kirishi bilan eng avvalo o’quvchilarning kayfiyatini ko’tarib olish



lozim va “Kayfiyat daqiqasi”ni tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Barkamol avlodni tarbiyalashdek o‘ta muhim va dolzarb vazifa biz o‘qituvchilarning zimmasiga tushganligini doimo his qilib turish zarur. Shuning uchun ham doimo ota-onalar bilan muloqotda bo‘lish yo‘llarini izlash kerak, chunki hamkorlik juda katta natijalarni olib keladi. Sinfda tashkil qilingan muloqot daftarlari o‘qituvchiga bu boradagi eng katta yordamchi bo‘lib kelmoqda. Bundan tashqari, aylanma daftarlardagi o‘quvchilarga berilgan uyga vazifalarni tekshirib, ostiga imzo qo‘yish lozimligini ota-onalar zimmasiga yuklatganlik maqulroqdir. Ota onasi tomonidan imzolanmagan daftarlari tekshiriladi-yu, ammo baholanmaydi. Baho ololmagan o‘quvchi, o‘z navbatida ota-onasini vazifalarni tekshirib berishga undaydi.

Bu bilan o‘qituvchi, ota-onalarning farzandlariga bo‘lgan et‘iborini oshiradi. Ushbu metod bilan ta‘lim sifatining oshishini kuzatsa bo‘ladi. Kelgusida yosh pedagoglar o‘z faoliyatlarida ushbu metodni qo‘llab borishsa, yaxshi natijalarga erishishi mumkin.

O‘quvchilarni komillikka yetkazishda o‘qituvchining hissasi beqiyos. O‘quvchilarning yoshlikdagi g‘ayrat va shijoatlarini to‘g‘ri yo‘naltira olish, ularni intelaktual salohiyatlarini oshirish, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarini mustahkamlash o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. O‘quvchilarni qiziqtirgan mavzularga bog‘lab darslarni tashkil etish o‘qituvchining asosiy mahoratidir. O‘qituvchi yangi mavzuni o‘rgatishdan avval, shu mavzu bo‘yicha o‘quvchilari nimalarni biladi, bugun nimalarni o‘rganadi, ertaga shu mavzudan kelib chiqib nima ishlar qila oladi. Manashi uch savolga o‘zida aniq javob topib olishi kerak. Shundagina darsidan o‘zi kutgan natijaga erishishi mumkin.

O‘quvchilardagi bilim olishga bo‘lgan qiziqish, intilishi o‘qituvchilarni bu sohada hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlarni ko‘pligiga dalolat qiladi.

Darslarda yuqori samaradorlikka erishish uchun

- O‘qituvchi yangi dars uchun o‘quvchilari bilmagan yangi ma‘lumotlarni olib kirishi zarur. Masalan shu mavzuga ta‘luqli olamshumul yangiliklar, rekord natijalar, mutahasis va mutafakkirlarimizning shu haqidagi aytilgan fikrlari bilan mavzuni dalzarbligini yoritib bera olishimiz kerak.

- Darslarga texnik vositalarni olib kirib shu mavzuni hayotimizdagi foydalanilayotgan o‘rinlarini ko‘rsatib bera olishimiz kerak.

- O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida munozarali daqidalar tashkil etib berishimiz kerak.

- O‘tilgan mavzuga ta‘luqli shaxsiy fikrlarini yozma bayon qilib, o‘z fikrlarini himoya qilishga o‘rgatib borishimiz kerak.

- Axborot vositalarini boshqarishni umumiy qoidalarini o‘rgatib borishimiz, o‘quvchilarni texnika vositalariga qiziqtirib boradi.

- Darsda har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikri bilan albatta ishtirok etishga erishishimiz kerak. Buning uchun o‘tilgan mavzularga o‘z fikrini bildirib borishga, nimalarni o‘rganib olganligini (joyiz bo‘lsa maqtanib) aytib berishga imkon berishimiz kerak.

- O‘tilgan mavzuni yanada mustaqil o‘rganishlari uchun manba‘lar taklif etib, ulardan o‘rganganimizdan ham ko‘proq, qiziqarliroq ma‘lumotlar olishlari mumkinligini aytib borishimiz kerak.

- Sinfdagi ba‘zi o‘quvchilarda o‘zlariga bo‘lgan talabchanglik, o‘zlariga ishonmaslik kabi kamchiliklar sezilib qoladi. Buning uchun shu o‘quvchining boshqa o‘quvchilardan ustunlik tomonlarini o‘zlariga ko‘rsatish kerak. Bu esa o‘quvchilarda o‘zlariga bo‘lgan ishonchni tarbiyalaydi. Bugun qilinishi kerak bo‘lgan ishlarni rejasini tuzib olish esa o‘zlariga bo‘lgan talabchanglikni oshiradi.

- Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “Mustaqil o‘rganib bilimini oshirish” imunitetini shakllantirish kerak.

Foydalanilgan axborotlar ro‘yxati:

1. “Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi”. Toshkent 2015
2. Boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash. Toshkent 2014
3. R. Ishmuhamedov, M. Yuldashev. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent - 2013
4. Internet ma‘lumotlari.



БIOLOGIYA ДАРSLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Xudayberganova Maftuna Qahramonovna

Urganch shahar 24-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 506 28 08

maftuna.qahramonovna_24@inbox.uz

Ramazonova Nilufar Allazarovna

Urganch shahar 94-son IMI o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 457 95 51

ramazonova.nilufar_94@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola biologiya darslarida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirishning ahamiyati haqida.

Kalit so'zlar: Biologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalari, ichki omillar, tashqi omillar, zamonaviy telekommunikatsiya vositalari, axborotlashtirish.

O'qituvchilar o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ta'lim mazmuninig tarkibiy qismlarini, ularni shakllantirish usullarini chuqur anglashlari lozim.

Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish bugungi kun talabi bo'lib, bu orqali o'quvchilar ta'lim jarayonini yanada chuqurroq egallashlari ko'zda tutilgan.

Biologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llash orqali ba'zi bir cheklangan imkoniyatlar ochilib, o'quvchilarda fan to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarida yaqindan yordam beradi.

«Axborot texnologiyalari» iborasidagi «texnologiya» so'zi lotincha «thexnos» – san'at, hunar, soha va «logos» – fan degan ma'noni bildiradi. Ya'ni texnologiya – biror vazifani bajarishda uning turli xil usullari ko'rinishini bildiradi.

Axborot texnologiyalari axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmuidir.

Axborot texnologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi ichki va tashqi omillar mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Ichki omillar – bu axborotlarning paydo bo'lishi (yaratilishi), turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k.

Tashqi omillar – bu axborot texnologiyasining texnik – uskunaviy vositalar – orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida o'qitishni avtomatlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. O'qitishni avtomatlashtirish (axborotlashtirish) yoki axborot texnologiyalaridan foydalanish dasturiga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) ta'lim tizimining barcha pog'onalarida axborotlashtirishning yetakchi bo'g'inligini ta'minlash;

b) barcha sohalar bo'yicha bilim berishda axborotlashtirishni rivojlantirishni loyihalash va yaratish (monitoring), resurs markaz tizimi;

d) axborotlashtirish sohalarida me'yoriy bazalarni yaratish (metodlar, ilmiy-metodik birlashmalar va h.k.);

e) texnik ta'minotni – kompyuterlar, axborot texnologiyasining boshqa qurilmalari (fotoapparatdan mikroskopgacha), ularga xizmat ko'rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish;

f) telekommunikatsiya (havo orqali, yerning sun'iy yo'ldoshlari va boshqa aloqa kanallari) tarmoqlari;

g) ta'minot resurslari (dasturiy ta'minot, internetdagi axborotlar majmui, ma'lumotnomalar va h.k.).

Biologiya fanida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish bugungi kun ta'lim jarayoninig muhim vazifasi hisoblanadi.

Biologiya darslari jarayonida televideniya orqali berib boriladigan ilmiy-ommabob filmlar,



audio-video texnikasi vositalari orqali beriladigan o'quv materiallari, kompyuter va internet materillaridan foydalanish mumkin.

Hozirda biologiya fani o'qituvchilari darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan birga axborot kommunikatsion texnologiyalaridan unumli foydalangan holda tashkil etish orqali oquvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustaxkamlash ma'suliyati yuklanadi.

Kompyuter orqali darslarni tashkil etish uchun fan o'qituvchilari avvalo kompyuterda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shaxmurova G., Raxmatov U., Xo'janazarov O'., Tog'ayeva G. “Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar”, Toshkent, 2017.
2. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. T.:TIB-KITOB, 2009
3. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013



ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Ахмедов Алишер Акром угли,
курсант 1 курса Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан
Наркулова Индира Рустам кизи,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
преподаватель кафедры «Изучение языков» Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан
+998900371798
indi977@mail.ru

Аннотация: в статье рассмотрены особенности изучения русского языка для военнослужащих, а также роль русского языка в мире и в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: русский язык, язык специальности, военнослужащие, военные вузы, методы обучения.

Самое удивительное и мудрое, что создало человечество, – это язык. Говорить умеют все люди на Земле. Они говорят на разных языках, а задача у всех языков одна – помогать людям понимать друг друга при общении, в общей работе. Без языка невозможны жизнь человека, людей, общества, развитие науки, техники, искусства. Русский язык – один из восточнославянских языков, один из крупнейших языков мира, национальный язык русского народа. Знание русского языка облегчает общение людей различных национальностей, населяющих нашу страну. В Белоруссии и Киргизии русский язык – второй государственный язык. Но и в тех странах, где русский язык не признан государственным, он все равно остается основным средством общения для многих людей. Русский язык стал общепризнанным мировым языком с середины XX века. Его мировое значение обусловлено тем, что это один из богатейших языков мира, на котором создана величайшая художественная литература. Он считается родным для 170 миллионов человек, и 350 миллионов человек его понимают. Русский язык – язык великой литературы, и уже потому он так популярен в мире, не говоря уже о том, что первые слова в космосе были произнесены на русском.

Так же и в Узбекистане в настоящее время русский язык занимает важное место в политической и социальной жизни людей. Государственные Переписи населения с 1991 года в независимом Узбекистане не проводились, и точных данных о количестве русского населения по республике нет. По официальным данным Госкомстата Республики Узбекистан по состоянию на 1 января 2021 года проживали 720 300 русских (2,1 % населения). Россия и Узбекистан – союзники и стратегические партнеры. Президент Республики Узбекистан **Шавкат Мирзиёев** неоднократно отмечал важную роль русского языка, как средства межнационального общения, языка для узбекистанского общества. Так же и для узбекских военнослужащих. Особое внимание обращается на необходимость уделять время изучению терминов и понятий, относящихся к сфере специальных знаний. Для определённой категории военнослужащих необходимо приступать к обучению русскому языку с нуля. На основе полученного опыта авторы предлагают уделять большее внимание языку специальности, т.к. военнослужащие имеют слабую подготовку, как по русскому языку, так и по специальным предметам. Вся система освоения курса русского языка, в свою очередь, должна быть направлена не только на обучение русскому языку как средству освоения предметных курсов, но и на подготовку военнослужащих к освоению специальных предметов. В обучении русскому языку в военных вузах важная роль отводится распределению времени между обучением русскому языку и специальным предметам. Этот подход к процессу обучения предполагает целенаправленный учёт связи «русского языка как иностранного» со специальными предметами. Существует необходимость создания современных учебников и учебных пособий для курсантов военных вузов. Отсутствие на данный момент таких учебников замедляет процесс овладения языком.

Особое место в обучении курсантов в узбекских военных вузах отводится изучению русского языка, как литературного, так и разговорного. Начиная с первого курса преподавание специальных дисциплин ведётся на русском языке и обычно для определённых категорий



военнослужащих приходится начинать изучение языка с нуля. «Русский язык» на первом курсе обучения является основной дисциплиной, а на втором курсе – единственной дисциплиной, от которой зависит эффективность успешного овладения устной и письменной русской речью, учебно-научного языка и языка специальности, а также интенсивность и результативность формирования профессиональных знаний курсантов. Строго говоря, преподаватели русского языка, работающие в военных вузах, тоже занимаются формированием предметных умений своих курсантов. При этом им приходится уделять внимание и истории, и культуре русского народа, сведения о них курсанты черпают также на экскурсиях в музеях города Ташкента.

Таким образом, особое внимание следует уделять устному общению, опросу на профессиональные темы, так как именно в этот период обучения у курсантов появляется необходимость защищать свою точку зрения, свой взгляд на ту или иную проблему по специальности.

Литература:

1. Абдивалиева Г. Методика обучения русскому языку как неродному в среднем профессиональном учебном заведении // Русский язык как фактор культурно-образовательной интеграции общества / отв. ред. О. Н. Морозова, М. В. Пименова. СПб.: СПбГЭУ, 2016. Вып. 11. С. 362-369. (Сер. Концептуальный и лингвальный миры).

2. Бальбеков Р.Ю., Пименова М.В., Веропотвельян Д.О. Русский язык: позиция в мире // Новое в лингвистике и методике преподавания иностранных и русского языков: материалы XXVII Междунар. науч.-практ. конф. (г. Санкт-Петербург, 23-24 июня 2017 г.) / под общ. ред. М. В. Пименовой. СПб.: Изд-во СПбГЭУ 2017. С. 7-13.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000